

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

BITIRUVCHI KURS TALABASI

SADULLAYEVA SHAHLO ANVAROVNAning

«TAMSIL SAN'ATIDAN FOYDALANISHDAGI SHOIRNING BADIY  
MAHORATI (ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONI  
MISOLIDA) »

mavzusidagi

5 120 100

-Filolog

*akadem darajasini olish uchun yozgan*

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

(2017-2018-o`quv yili)

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**ESHONQULOV H.P.**

Buxoro – 2018

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI

# O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani \_\_\_\_\_ A.A.Haydarov

“\_\_” \_\_\_\_\_ 2018-yil.

## BITIRUVCHI KURS TALABASI

SADULLAYEVA SHAHLO ANVAROVNAning

«TAMSIL SAN'ATIDAN FOYDALANISHDAGI SHOIRNING BADIY  
MAHORATI (ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONI  
MISOLIDA) » mavzusidagi

5 120 100

—Filolog

*akadem darajasini olish uchun yozgan*

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2017-2018-o`quv yili)

**Ilmiy rahbar:** filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**ESHONQULOV H.P.**

**Rasmiy hakam:** filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
**HAYITOV SH.A.**

**Buxoro – 2018**

**«Ma’qullayman»**

**«Tasdiqlayman»** \_\_\_\_

**Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,**

**O’zbek adabiyoti kafedrasи**

**dotsent H.P. Eshonqulov**

**mudiri Sh.N.Ahmedova**

**«     » \_\_\_\_\_ 2017-y.**

**«     » \_\_\_\_\_ 2017-y.**

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Sadullayeva Shahlo Anvarovnaning  
**«Tamsil san’atidan foydalanishdadagi shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni misolida)»** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borishi lozim bo`lgan ishlar yuzasidan

### **TOPSHIRIQLAR REJASI**

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqtি	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo`yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to`plash, o`rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o`rganish	sentabr		

	3. Mavzu bo`yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To`plangan materiallarni sistemalashtirish	<b>oktabr</b>		
<b>BMI ustida ishlash</b>	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	<b>noyabr</b>		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash	<b>dekabr</b>		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash	<b>yanvar</b>		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko`chirish	<b>fevral</b>		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	<b>mart</b>		
	6. Adabiyotlar ro`yxatini tartibga solish	<b>aprel</b>		
<b>BMI ni rasmiy- lashtirish</b>	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	<b>may</b>		
BMINI himoya qilish		<b>iyun</b>		

**Bitiruvchi kurs talabasi**

**Sadullayeva Shahlo**

**Ilmiy rahbar**

**Eshonqulov H. P.**

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti**

**o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan**

**KO`CHIRMA**

**29-avgust, 2017-y.**

**Qatnashdil: kafedraning barcha**

**a`zolari**

## **K U N T A R T I B I**

***Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.***

**Kafedra qaror qiladi:**

4-kurs talabasi Sadullayeva Shahloningbitiruv malakaviy ishi mavzusi«Tamsil san’atidan foydalanishdadagi shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni misolida)» shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Sadullayeva Shahloning malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent Eshonqulov Husniddinilmiy rahbar etib tayinlansin.

**Yig`ilish raisi**

**Sh.N. Ahmedova**

**Yig`ilish kotibasi**

**G.Y.Samandarova**

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti**  
**o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi**  
**bayonnomasidan**

**KO`CHIRMA**

**Buxoro sh.**

**5-may, 2018-y.**

**Qatnashdi: kafedraning barcha**

**a`zolari**

**K U N T A R T I B I**

**4-kurstalabasi Sadullayeva Shahloning «Tamsil san'atidan foydalanishdadagi  
shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni  
misolida)» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi**

**Kafedra qaror qiladi:**

**4-kurs talabasi Sadullayeva Shahloning «Tamsil san'atidan  
foydalanishdadagi shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”**

**dostoni misolida)»** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi«sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari nomzodi, dotsent SH.A. Hayitov tayinlansin.

**Yig`ilish raisi**

**Sh.N.Ahmedova**

**Yig`ilish kotibasi**

**U.To`rayeva**

**Fakultet ilmiy kengashning 2018- yil may**

**bayonnomasi bilan tasdiqlangan**

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lif yo`nalishi bitiruvchisi Sadullayeva Shahloning «**Tamsil san'atidan foydalinishdadagi shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni misolida)**» mavzusidagibitiruvmalakaviy ishiga DAK

**XULOSASI**

No	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo`yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo`lmasligi kerak)	talabga javob beradi–10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo`yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo`yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo`yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo`yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yeterli darajada asoslangan–5b.	yeterli asoslan-magan–3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to`liq aniq emas – 5 ball	aniq emas – 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalanganlik darjasasi	to`la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darjasasi	natija yangi – 8 ball	ilgari olingan – 6 ball	to`la ishonchli emas–3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi;, ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lif, atrof-muhitni himoya	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo`q– 3 ball

	qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)			
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to`la aniq emas – 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referaktiv xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to`la foydalanilgan - 8 ball	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o`quv qo'llanma va ma'lumotnomalar dangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to`liq – 8 ball	o`rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMI ni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMI ga qo'yilgan yakuniy ball:	Bahosi:		

**Eslatma:** Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

**DAK raisi: prof. Shermatov A.**

**A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)**

**2. prof.Ahmedova Sh.N. (a'zo)**

**3. dots.Rajabova M.B. (a'zo)**

**4. dots.Davronova Sh.G` (a'zo)**

**5.**

**6.**

**-iyun, 2018-y.**

**Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta’lim yo`nalishi bitiruvchisi Sadullayeva Shahloning «Tamsil san’atidan foydalanishdadagi shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni misolida» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi**

#### **ANNOTATSIYASI**

Badiiy san’atlar ichida tamsil ijodkorning g`oyaviy muddaosini o`quvchiga muayyan tarzda yetkazish bilan bir qatorda o`quvchining his-tuyg`ulariga ta’sir qilish vasifasini bajaradi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni irfoniy mohiyat kasb etgani uchun ham asarda tamsil san’atiga ko`pgina o`rinlarda murojaat etilgan. Zero, dostondagi tamsillarni ilmiy tadqiq etish undagi tasavvufiy mohiyatni teran anglashga xizmat qiladi, muallifning badiiy mahoratini chuqurroq anglab olish uchun imkoniyat yaratib beradi. Shu jihatdan qaralganda ushbu BMIning ahamiyatli tomoni anglashiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz kirish qismi, ikki asosiy bob va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Birinchi bobda fikr va xulosalarni hayotiy detallar orqali dalillovchi tamsil ko`rinishi dostonning muaqaddimaviy boblari hamda qushlarning uzrxohligi va ularga aytilgan javoblar bilan bog`liq hikoyat, masallar misolida tahlil qilingan. Ikkinci bobda esa vodiylar talqiniga bag`ishlangan tamsiliy hikoyatlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Bitiruv malakaviy ishimizning oldiga qo`yilgan maqsad va vazifalariga tayangan holda Alisher

Navoiy ijodi misolida tamsil san'atining yangi qirralari, imkoniyatlarini ochib berildi. Alisher Navoiyning ijodida tamsil san'atining qo'llanilish darjasи, tamsil sa'atining ikki yirik turi sifatida detallashtirilgan va syujetli tamsil (tamsiliy hikoyat)larning farqi, "Lison ut-tayr" dostonida qo'llanilgan tamsillarning asar kompozitsiyasidagi o'rniiga ko'ra farqlanishi, detallashtirilgan tamsilning masal va hikoyatlarni xulosalashdagi ahamiyatini ochib berish, tamsiliy hikoyatlarning dostonda tutgan o'rni va vazifasini aniqlash, tamsiliy hikoyatlarning vodiylar sifatini ochib berishdagi ahamiyatini o'rganishga oid qator masalalar bitiruv malakaviy ishimizning vazifalarini tashkil qiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun bir qator olimlarning ilmiy ishlaridan foydalandik. Xususan, Y. Is'hoqovning "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida badiiy san'atlarga bag`ishlangan bir qator turkum maqolalari, aynan shu muallifning "So'z san'ati so'zligi" nomli kitobi, A. Hojiahmedovning badiiy san'atlarga bag`ishlangan asarlari, Sh. Sharipovning "Lison ut-tayr" haqiqati" monografiyasi ushbu BMIda tadqiq etilajak masalalae uchun asos vazifasini o'tadi.

**BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lif yo`nalishi bitiruvchisi Shahlo Sa'dullayevaning "Tamsil san'atidan foydalanishdagi shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni misolida) "mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

## **TAQRIZ**

Dunyoda inson fikri, ong-u shuuri, hatto his-tuyg'usini tamomila yangi tomonga, e兹gulik va yaxshilik tarafiga o'zgartirib yuborgan badiiy asarlar, buyuk ijodkorlar bisyor. Vatanimiz adabiyoti tarixida ham jahon badiiy tafakkurini yuksak cho'qqilarga ko'targan, boshqa xalqlar adabiyoti tarixida kuchli ta'sir ko'rsatgan buyuk ijodkorlarimiz, shoh asarlarimiz mavjud. Shunaqangi buyuk ijodkorlarimiz qatorida ,shubhasiz, Alisher Navoiy hazratlari birinchi o'rinda turadi. Hazrat Navoiy qalami tuhfa etgan bir qancha asarlar bugungi kun kitobxonini haqiqiy kamolot sari yetaklaydi, desak, hech yanglishmaymiz. Navoiy qalamiga mansub bir qator asarlar o'zidagi purma'no hikmatlari-yu, ta'sirchan jumllalari ila kishini o'ziga maftun etadi va bunday nodir asarlar shu tahlitda yozilgan boshqa mumtoz asarlardan tubdan farq qiladi. Navoiyning xuddi shunday abadiyatga muhrlangan asarlari qatorida "Lison ut-tayr" dostoni alohida mavqega egadir.

"Lison ut- tayr" ("Qush tili") – Navoiyning tasavvufiy-falsafiy ruhda yozilgan asari hisoblanadi. Asarda jumlalarning ta'sirchanligi, so'zlarning sehrli qudrati, keltirilayotgan iqtiboslarning aniqligi, boblarda bayon qilinayotgan fikrlar

mag'zidagi badiiy san'atlarning jozibasini ko'rib ,beixtiyor, Hazrat Navoiyning so'z tanlashdagi, jumla tuzishdagi mahoratiga qoyil qolmay iloj yo'q.

Haqiqatdan, muallif "Lison ut-tayr" dostonida bir qancha badiiy san'atlardan ustalik bilan foydalangan. Ayniqsa, tamsil san'atiga nazarimizda, ko'proq murojaat etgan. Asarning o'ttizga yaqin o'rnida tamsil san'aniga murojaat etilgan. Talaba Shahlo Sa'dullayeva ana shunday sharafli va mas'uliyatli ishga bel bog'lab asarda mavjud tamsil san'atlari namunalarini izlab topgan hamda ularni badiiy mushohada etishga harakat qilgan.

Shahlo Sa'dullayeva asarda keltirilgan badiiy san'atlarni imkon darajasida tahlilga tortdi. Fikr va xulosalarni hayotiy detallar asosida dalillovchi tamsillarning mag'zidagi bir qator hayotiy haqiqatlarni te'ran mushohada etishga harakat qildi. Hanuzgacha Navoiyning badiiy mahorati, ijodining eng serqirra kurtaklari "Lison ut-tayr" dostoni asosida tahlil qilinmagan edi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi birinchi marta yaxlit tadqiqot ko'rinishida o'rganishga bag'ishlanayotganligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Ishda mavzuga aloqador bir qator ilmiy va badiiy manbaalar imkon qadar o'rganib chiqilgan. Fikr-mulohazalar reja asosida, mantiqiy izchillikda bayon etilgan. Bajarilgan ish unda belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladi. Talaba mavzu mohiyatini to'g'ri ilg'ay olgan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Kirish qismida mavzuning dolzarbliji, shu mavzuni o'rganishning maqsad va vazifalari, manbasi, predmeti, metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, ishning sinovdan o'tishi va tuzilishi haqida umumiyligi ma'lumot berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmuni ikki asosiy bobda bayon etilgan. "Fikr va xulosalarni hayotiy detallar asosida dalillovchi tamsilning qo'llanishi" deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat bo'lib, dastlabki faslida dostonning muqaddimaviy uch bobida keltirilgan tamsillar imkon darajasida izohlangan, keyingi faslda esa o'ttiz qush bilan bog'liq munozarada aytilgan kichik hikoyat va masallar tarkibidagi bir qancha tamsillar dalillar asosida mufassal yoritilgan. "Lison ut-tayr" dostoni asosida keltirilgan aniq iqtiboslar-u tamsillar atroflicha o'rganilgan.

Ishning "Vodiylar talqinida tamsiliy hikoyatlarning qo'llanilishi" deb nomlangan bu bob uch fasldan iborat bo'lib, har uchchala faslida dostonda keltirilgan yetti afsonaviy vodiy – Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat va Faqr-u fano vodiylarida keltirilgan hikoyatlar tarkibidan tamsiliy san'atlar topib, izohlangan. Hikoyalar mag'zidagi navoiyona qarashlar nozik badiiy chizgilarda aniq va ravshan tasvirlangan.

Ishda yutuqlar bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar borligi ham kuzatiladi. Jumladan, ishda hali bahstalab, munozarali, to'ldirilishi mumkin bo'lgan fikrlar, ayrim takrorlar ham uchraydi. Boblar bo'yicha xulosalar yetishmaydi. Ayrim zarur o'rirlarda iqtibos keltirilmagan. Biroq bunday kichik juz'iy kamchiliklar ishning saviyasiga putur yetkazmaydi va ularni yengil tuzatish mumkin.

Xulosa ish mohiyati ixcham umumlashtirilgan. Ishning bajarilishi, rasmiylashtirilishi, unda mavzuning qo'yilishi va yoritilishi bakalvrlik tadqiqotlar oldiga qo'yiladigan talablarga javob bera oladi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi yakunlangan va o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajargan. Shuni inobatga olib, ishni ijobjiy baholash va tadqiqot muallifi Shahlo Anvarovna Sa'dullayevani bakalavr akademik darajasini olishga loyiq deb hisoblash mumkin.

Rasmiy hakam:

**SH. A. Hayitov**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

## **Tamsil san'atidan foydalanishdagi shoirning badiiy mahorati (Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni misolida)**

Reja:

### **Kirish**

#### **I bob. Fikr va xulosalarni hayotiy detallar asosida dalillovchi tamsilning qo'llanishi**

I.1. Dostonning muqaddimaviy boblarida tamsilning qo'llanilishi

I.2. Qushlarning uzrxohligiga aytilgan javoblar bilan bog`liq hikoyat va masallarda tamsilning qo'llanilishi

#### **II bob. Vodiyilar talqinida tamsiliy hikoyatlarning qo'llanishi**

II.1. Talab va Ishq vodiyilarining sifati bayonidan so`ng keltirilgan tamsiliy hikoyatlar

II.2. Ma'rifat, Istig`no va Tavhid vodiylari vasfida tamsil-hikoyatlarning qo'llanilishi

II.3. Hayrat va Faqr-u fano vodiylarini tasvirlashda tamsiliy hikoyatlarning o'rni

## **Umumiy xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** Yurtimiz istiqboli uchun olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi keng ko'lamli ishlar bilan birga, Respublikamizda qilinayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar ta'limning barcha bo`g`inlarida adabiyotni o`qitishni ham tashkiliy, ham mazmuniy jihatdan qayta ko`rib chiqish vazifalarini ko`ndalang qo`ymoqda.

Keyingi yillarda adabiyotga e'tibor, ijod ahliga ko`rsatilayotgan g`amxo'rlik har qachongidan-da kuchaydi. Bunday sa'y-harakatlarning eng yuksak namumasi Prezidentimizning shu yil 5-apreldagi "O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori bo`ldi. Bu tarixiy hujjat adabiyotimizning gurkirab rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi, ijodiy jarayon bilan bog`liq ko`pgina dolzarb muammolarni hal etishda dasturilamal bo`ladi.

Dunyoda inson fikri, ong-u shuuri, hatto his-tuyg`usini tamomila yangi tomonga, ezgulik va yaxshilik tarafiga o`zgartirib yuborgan badiiy asarlar, buyuk ijodkorlar bisyor. Vatanimiz adabiyoti tarixida ham jahon badiiy tafakkurini yuksak cho`qqilarga ko`targan, boshqa xalqlar adabiyoti rivojiga kuchli ta'sir ko`rsatgan buyuk ijodkorlarimiz, shoh asarlarimiz mavjud. Shunaqangi buyuk ijodkorlarimiz qatorida, shubhasiz, Alisher Navoiy hazratlari birinchi o`rinda turadi va ularning abadiyatga muhrlangan asarlari qatorida "Lison ut-tayr" dostoni alohida mavqega ega. Prezidentimiz o`tgan yili (2017-yilda)

ijodkor-ziyolilar vakillari bilan bo`lgan uchrashuvda so`zlagan nutqi xulosasida: "Bizning havas qilsa arziyidigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziyidigan ulug` ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziyidigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziyidigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta, bo`ladi!"[2, 22] - deb aytgan fikrlari yurtimizda ijod ahli qanchalik qadrga erishajagiga dalil bo`la oladi.

Yurtboshimizning qaroriga binoan Yozuvchilar uyushmasining viloyatlardagi bo`limlari qoshida "Ijod" fondi shoxobchalari, Bosh vazir raisligida Vasiylik kengashi, sarmoyador tashkilotlar bilan uyushma sho`balari o`rtasidagi "Do`stlik klubi" tashkil etilganini, moliyaviy qo`llab-quvvatlash kuchaytirilganini e'tirof etmaslik mumkin emas.

Prezident qarorida adabiyot ahlini quvontirgan jihatlar bisyor. Jumladan, mumtoz adabiyot, avvalo, Alisher Navoiy asarlarini xalqqa yaqinlashtirish masalasi qarorda o`rtaga qo`yilgan juda muhim masalalardan biridir.

O`zbekiston Rezpublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o`rganish va targ`ib qilish maqsadida yoshlar o`rtasida kitobxonlik tanlovlarni tashkil etish to`g`risida"gi [6] Qaroriga binoan, o`tgan yili tashkil etilgan "Yosh kitobxon" tanlovi Nizomiga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi. Darhaqiqat, "Yosh kitobxon" tanlovida ikki yuz ellik ming nafarga yaqin yoshlar ishtirok etib, tanlov g`oliblariga "Prezident sovg`asi" bilan taqdirlangani yoshlar o`rtasida kitobxonlik madaniyati rivonlanishiga muhim ta'sir o`tkazdi. Shu yilning 12-mayidagi Prezident qaroriga ko`ra, bu yilgi tanlov o`zgacha saviyada bo`lib o`tishi va tanlovda mumtoz adabiyot namoyondalari, xususan, Navoiy ijodiga alohida to`xtalib o`tilishi kutilmoqda. Yurtboshimiz tashabbusi bilan viloyatlarda "Navoiyxonlik", "Hadislar bilimdoni", "Qur'on musobaqasi" kabi tanlovlarning bo`lib o`tayotgani xalq orasida adabiyot, ayniqsa mumtoz adabiyot bilan bir qatorda diniy bilimlarga, tasavvuf ta'lilotiga qiziquvchilar soni tobora ortmoqda.

Shunday bir sharoitda Navoiy va uning asarlarini o`rganish, ularni xalqqa yaqinlashtirish adabiyotshunoslar oldida turgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Zero, Navoiy ijodi sal kam olti asrni oshib barvasta holda kela oldi va Navoiy asarlari hech qachon davr tanlamagan, uning asarlaridagi mavzular olami doimo dolzarb masal bo`lib kelgan. Yurtimiz sevgan shoir Erkin Vohidov aytganidek, hayotda biron bir mavzu yo`qki, uni Navoiy hazratlari nazm silkiga tizmagan bo`lsa[40, 261].

**Tadqiqotning obyekti va predmeti.** Ushbu BMIning obyekti Alisher Navoiyning badiiy mahorati, so`z qo`llashdagi va she'riy san'atlardan foydalanishdagi o`ziga xosliklarini kuzatishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti Alisher Navoiy ijodida, uning "Lison ut-tayr" dostonida foydalanilgan badiiy-estetik vositalar orasida tamsil san'atining tutgan o'rnnini aniqlash va shoirning ushbu san'atni qo'llashdagi faqat o`zidagina uchraydigan xususiyatlari bilan tanishib chiqish.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ushbu BMIdan ko`zlangan maqsad Alisher Navoiy ijodi misolida tamsil san'atining yangi qirralari, imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

BMIda quyidagi vazifalar ko`ndalang qo`yilgan:

1. Alisher Navoiyning ijodida tamsil san'atining qo'llanilish darajasini aniqlash.
2. Tamsil sa'atining ikki yirik turi sifatida detallashtirilgan va syujetli tamsil (tamsiliy hikoyat)larni farqlash.
3. "Lison ut-tayr" dostonida qo'llanilgan tamsillarning asar kompozitsiyasidagi o`rniga ko`ra farqlanishini tushuntirish.
4. Detallashtirilgan tamsilning masal va hikoyatlarni xulosalashdagi ahamiyatini ochib berish.
5. Tamsiliy hikoyatlarning dostonda tutgan o`rni va vazifasini aniqlash.
6. Tamsiliy hikoyatlarning vodiylar sifatini ochib berishdagi ahamiyatini tahlil qilish.

**Mavzuning o`rganilish darjasasi.** "Lison ut-tayr" dostonining g`oyaviy yuksak, badiiy jihatdan pishiq va ta'sirchan (emotsional) chiqishida an'anaviy tasviriy vositalarning roli juda katta. Muhimi shundaki, Navoiy Sharq poetikasida amalda bo`lgan badiiy-tasviriy vositalarni mazmun talabiga bo`ysundiradi, binobarin, asarda qo'llanilgan tasviriy vositalar shaklbozlik uchun emas, balki shoirning g`oyaviy pozitsiyasi va maqsadini aniq va yorqin, badiiy jihatdan go`zal ifodalash uchun xizmat qiladi. Navoiyning an'anaviy tasviriy vositalardan foydalanish mahorati haqida ish olib borgan mutaxassislardan Maqsud Shayxzoda, A. Rustamov va Y. Is'hoqovlar [23;24;26] to`g`ri qayd qilganlaridek, shoir turli badiiy vositalarni qo'llashda ularni mazmunni chuqur ochishga safarbar qilib ko`pgina yangiliklar kashf etadi, ulardan yangi funksiyalarni ifoda etishda aktiv foydalanadi. Ma'lumki, badiiy-tasviriy vositalar "fikrni ravon va nafis ifodalash yo`llari va vositalari, badiiy san'atlar (priyomlar, vositalar) ning turlari hamda xususiyatlari kabi muhim masalalarni o`z ichga oluvchi ilmi bade'ning muhim tomonini tashkil etadi. Navoiy o`z asarlarida mazmunni obrazli va ta'sirli ifodalaydigan, fikrni bo`rttirib, uni ravshanlashtiradigan, oxangdorlik va musiqiylikni ta'minlaydigan ma'naviy, lafziy va harfiy san'atlarning turli-tuman shakllaridan (ular mumtoz

she'riyatda yuzdan ortiq sanladi) mohirlik bilan foydalanangan. Bu o'rinda ularning hammasi haqida bat afsil fikr yuritishning imkoniy yo`qligini hisobga olgan holda (zotan, buning hojati ham yo`q), shoirning ba'zi san'atlarini qo'llashdagi mahorati xususida "Lison ut-tayr" materiallari misolida to`xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida iste'foda etilgan she'riy san'atlar, xususan, tamsil san'ati va uning ichki turlari tadqiq etilgan. Ushbu poetik san'atning mohiyati, turlari o'rganilgan, "Lison ut-tayr" dan keltirilgan misollar orqali fikrlar asoslangan. Bu ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining natija va xulosalaridan oliyhoglarda "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fani bo'yicha o'tkazilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, maxsus kurslarda, shuningdek, akademik litsey va kollejlarda (10-11-sinf) adabiyot darslarida foydalanish mumkin.

**Ishning tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishimiz kirish qismi, ikki bob, umumiylashtirilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob. Fikr va xulosalarini hayotiy detallar asosida dalillovchi tamsilning qo'llanilishi**

### **I.1. Dostonning muqaddimaviy boblarida tamsilning qo'llanilishi**

Mumtoz adabiyotda an'anaviy badiiy san'atlardan foydalana olish shoirlar uchun muhim vazifalardan biri hisoblangan. Shoir she'riy san'atlardan qanchalik ustalik bilan foydalana olsa, unda mahorat zohir etsa, bu uning ma'lum darajada kamolotga yetgani hisoblangan. Agar bu ilmdan foydalana olmasa, Xoqoniy aytganidek:

"Suvarnigori hadisam vale dar on surat,

Ki jam dar on notavonim nihad, nangoram".

(Mamuni: Men so`zning suratkashiman, agar shu suratga jon kirgiza olmasam, uni yaratmaganim ma'qul)[32, 71].

Klassik adabiyotda yuzdan ortiq badiiy san'atlar mavjud bo'lib, ular lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga bo'linadi. Lekin bu san'atlarning hammasi she'riyat olamidan bir xilda o'rinnegallamagan. Bularning orasida ayniqsa iyhom, talmeh, tamsil, tazod, zulqofiyatayn, tashbeh va boshqalar keng tarqalgan.

Atoulloh Husayniy **tamsil** san'atini ma'naviy san'atlarning ikkinchi naviga kiritadi. Birinchi nav (guruh)dagi san'atlar arab fusahosi va ajam shuarosi tomonidan san'at deb topilgan bo'lsa, ikkinchi guruhdagi san'atlar "ajam shuarosi qoshinda sanoyi' turkumidindur, ammo arab fusahosining bari bir bo'lub, ani nutqning zotiy go'zalliklaridin deb hisoblapurlarkim, aning bayoni ma'oniy ilmi va bayon ilmining vazifasidur va badiiyat sanoyisidin deb hisoblamapturlarkim, aning bayoni badi' ilmining vazifasidur" [20, 117]. Muallif fikricha, ma'naviy san'atlarning ana shu ikkinchi guruhidagi boshqa san'arlar qatori **tamsil** ham "oriziy go'zalliklardindur" , keyindan paydo bo'lgan san'atlardandir.

Mohiyat jihatidan dalillash lirik qahramonning muayyan paytdagi xatti-harakatlari, kechinmalar, falsafiy-ijtimoiy, axloqiy-tarbiyaviy ruhdagi poetik xulosalarini mantiqan asoslashga qaratilgan.

1.Lirik qahramon harakatlari - kechinmalarini asoslashning quyidagi asosiy usullarini ko'rsatish mumkin:

A) Poetik sujet - lavha tarzida. Bunday g'azallarda tasvir lirik qahramon holati, kechinmalarining muayyan bir davri yoki payti izchil (zamon- vaqt jihatidan aniq) va muhtasar hikoya qilinadi. Ana shuning sababi esa bir misrada yoki bir bayt doirasida izohlanadi. Masalan, "*Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi*" yoki "*Tun oqshom bo'ldi-yu kelmas mening sham'i shabistonim*" misralari g'azallarda poetik syujetligi tasvirning sababini mantiqan izohlaydi va dalillaydi.

B) Bir qator she'rlarda xatti-harakat tasviriga doir poetik syujet mavjud emas, lekin ular zamirida xatti-harakat, ichki kechinma tahlili yotadi. Shoир shunday o'rinda ham o'zining alamli, otashin fikrlari asosini ko'rsatish, keskin xulosalarini mantiqan dalillashga harakat qiladi va bunga turli poetik usullar orqali erishadi. Masalan, radd ul-matla' san'ati ishlatilgan bir qator g'azallar ana shunday ruhda:

*Kimsani dard ahli deb sirrimg'a mahram ayladim,*

*O'z-o'zumni kuch bilan rasvoi olam ayladim.*

*Ey Navoiy, dema sirring kimsaga, mundoqki men*

*Kimsani dard ahli deb, sirrimg'a mahram ayladim.*

Sabab ta'kidlanmoqda, lekin u shoирning qat'iy xulosasi ("dema sirring kimsaga") uchun qat'iy dalil sifatida keladi.

2. Dalillashning Navoiy lirikasi uchun xarakterli ko'rinishi - bu fikr, xulosalarni hayotiy detallar asosida dalillashdan iborat. Miniatyur ruhdagi bu usul g'azalda bayt doirasida, qit'a va ruboiyda she'r doirasida amal qiladi. Masalan, g'azalda:

*Davr ham qildi qadingni, go'shae tut, yo'q aso,*

***Negakim, dard - o'q bo'lur zohir, "alif" yondashsa, "dol".***

*Zahmim ichra qoldi paykoning, ne yanglig' butgay ul?*

***Chunki qo'ymas yorag'a yopushqali mahramni suv.***

*Labini so'rg'ali aqlim junung'a bo'ldi badal:*

***May ichsa, tez o'lur el, sog'da gar yovosh ko'runur.***

*Siymi ashkim itlaringning yo'lida aarf ayladim,*

***Chun demishturlarki, qozg'on do'st moling borida.***

Ruboiyda "G'urbatda g'arib..." deb boshlanuvchi ruboyni eslatish mumkim.

Qit'ada dalillashning vazifasi juda katta. Chunki bu janrda ijtimoiy-tarbiyaviy mazmun, pand-u nasihat ruhi yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham, har bir muhim fikr va xulosa o'ziga xos hayotiy detal bilan asoslanadi, isbotlanadi. Fikr-xulosa bilan uning izohi, dalili o'tasida muvozanat ham har bir she'rda o'ziga xos.

"Yuz tuman noplari erdin yaxshiroq" deb boshlanuvchi qit'ada fikr-xulosa bir baytda, uning isbot-dalili esa ikki baytda ifodalangan.

Umuman, bu guruhg'a mansub baytlarni mohiyat e'tiboriga ko'ra ikki guruhg'a bo'lish mumkin:

1. Fikrni, maqsadnu e'tiborli, mashhur fikr yordamida dalillash. Bu asosan, xalq maqollari, hikmat va hadislardan dalil sifatida keltirish tarzda ko'rindi (irsoli masalsan'ati).

2. Fikr, maqsadning isboti, tasdig'i uchun hayotiy dalillash keltirish(tamsil san'ati).

Tamsilning irsolisi masaldan farqi shundaki, irsolisi masalda mashhur maqol, hadis yoki hikmat dalil sifatida keltiriladi, tamsilda esa shoirning o'zi tanlagan hayotiy voqeasi yoki detallar dalil-isbot sifatida keladi. Buning zamirida taahbihiy munosabat yotadi (lekin tashbihiy aloqa zimdan bo'lib, tashbih vositalarisiz amalga oshadi). Buning o'zi ham ikki xil ko'rinishga ega:

1. Tamsiliy munosabat mazkur bog'lanishning sababiy ildiziga ishora qiluvchi so'zlar vositasida yuzaga chiqadi: *chunki, ne tong, ne ajab, negakim, nedinkim* (yoki qisqargan formalari: *kim, ki*) va h.

2. Intonatsiya yo'li bilan bog'lanish. Tamsil san'atining haqiqiy namunasi hech qanday vositasiz tamsiliy bog'lanishga daxldor misra yoki baytlarni yonma-yon (Shayxzoda so'zi bilan aytganda, yondosh) qo'yish orqali yuzaga keladi. Yevropa adabiyotshunosligida bu psixologik paralelizmdeyiladi[24, 63].

Tamsil san'ati she'riyatda hayotiy detallar, realistik unsurlarning paydo bo'lishiga zamin bo'lgan (Navoiyda ham, xususan, sabki(usul) hindiy namoyondalarida).

Tamsil she'riyatda realistik tamoyilning kuchayishiga turtki bo'lgan. Asoslashning ikkinchi bir yo'li ko'tarinki uslub uvhun xos husni ta'lilbo'lib, bu tamsilning aksi.

Bundan tashqari tamsil san'atini turli xususiyatlarga qarab tasniflash, ularni esa, o'z navbatida, bir necha ichki turlarga bo'lish mumkin.

Barchamizga ma'lumki, Sharq adabiyotida asar kompozitsiyasini tuzishda ma'lum bir tartibga amal qilingan.Bu holat ayniqla asarning kirish qismida ko`zga yaqqol tashlanadi. Chunki islam olamida yaratilachak har bir asar Yaratganga hamd va sano aytish, munojot qilish bilan boshlangan. Hamd qismidan so`ng na't (Payg`ambarni madh etish, yaxshi sifatlarini aytib maqtash) bitilgan. Na'tdan so`ng, odatda, to`rt xalifa: Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Aliga bag`ishlangan boblar bo'lgan (Chahoriyorlar uchun boblar har doim ham ketirilmagan). Shulardan so`ng muallifning o`z ustozlarini zikr etib, ularga turli xil maqtovlar bitishi ham muqaddimaviy boblardan joy olgan.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonining muqaddima qismi o'n uch bobni o`z ichiga oladi. Asarning muqaddimaviy boblari quyidagilardan iborat:

1. Bismilloh bilan boshlanuvchi qism (basma).
2. Tangriga munojot (O`z kamchiliklaridan sharmanda bo`lib, bu uyatdan boshi tubanlik tuprog`iga egilganligi yuzasidan barcha hojatlarni amalga oshiruvchi hakam oldida munojot).
3. Na't (Bu dostoniga baxtiyorlar payg`ambari vasfi bilan sarlavha qo`qmoq va gunohkorlar homisiyi madhi bilan ziynat bermoq).
4. Na't (U payg`ambarlik Qof tog`ining anqo qushining balandparvozligi va haqiqiy mahbub visoliga yetib qush tili bilan so`zlashgani va sirlashgani).

5. Abu Bakr Siddiq (r.a.) ta'rifi.
6. Ushbu xalifa haqida hikoyat.
7. Umar (r.a.) vasfi.
8. Ushbu xalifa to`g`risida hikoyat.
9. Usmon (r.a.) shoni haqida.
10. Hikoyat.
11. Ali (r.a.) maqtovi.
12. Hikoyat.
13. Shayx Farididdin Attorga madh va sano.

Dostonning muqaddimaviy boblarida badiiy san'atlarning tashbeh, mubolag`a, talmeh, ta'zod kabi ko`rinishlari yetakchilik qilsa-da, o`rnii bilan tamsil san'atidan ham foydalanilgan.

Masalan, munojot qismida qo`llanilgan shoirning yuksak badiiy didini ko`rsatuvchi tamsilga nazar solsak:

"...Onchakim bo`lg`ay badan qaydida ruh,

Qil anga ro`zi shuhudingdin futuh.

Chu bu qushqa rixlat og`oz o`lg`usi,

Gulshani aslig`a parvoz o`lg`usi.

Qush tavajjuh aylasa uchmoq sari,

Tufroq etsa mayl ham tufroq sari".(22-bet).

Parchadagi tamsil san'atini sharxlashdan oldin, baytlarning mazmuniga e'tibor beraylik: "Garchi ruh badan ichra tutqun bo`lsa ham, uni mushohada etiladigan kunqo`yib yubor. Toki bu qush safarga moyil bo`lib, asl gulshan tomon parvoz qila olsin. Chunki qush uchmoq sari intilgani , tuproq esa tuproqqa qorishgani ma'qul".

Ostiga chizilgan baytdagi "qush", "uchmoq" va "tufroq" so`zlari ikki ma'noda qo`llangan. "Qush" ham qanotli jonzot, ham ruh ma'nosida, "uchmoq" ham parvoz etmoq, ham jannat ma'nosida, "tufroq" esa ham yer unsuri, ham inson tanasi ma'nosida qo`llangan. Ostiga chizilgan baytni undan oldin kelgan baytlardan kelib chiqib "ruh jannat sari, tana esa tuproqda qolgani yaxshi", deb tushunish

mumkin bo`lsa, tamsil san'ati deb qaralgan holatda bayt mazmuni shoirning so`z o`yini qilyotganini ko`rsatadi, yohud "qush uchgani ma'qul, tuproq esa tuproqqa qo`shilishi kerak". Bu holatda so`zlar o`z ma'nosida qo`llanilib, tamsilga, hayotiy misol orqali dallil keltirishga xizmat qilmoqda. Yuqoridagi misolda Navoiy tashbeh, iyhom va tamsil san'atlari qavat-qavat holatda mahorat bilan qo`llay olgan.

Abu Bakr Siddiq (r.a.) ta'rifiga bag`ishlangan 5-bobda ham shoir tamsil san'atidan foydalanadi:

"Ulki sultonni rasulning yoridur,  
Soniyi isnayn azxumo filg`oridur.  
Sodiq-u, siddiq-u, hamrozi oning,  
Har yomon-yaxshida damsozi oning.  
Ul erdi olam eliga rahnamun,  
Keldi chun valsobiqun assobiqun.  
Muqtadoyi zumrayi tahqiq ul,  
Sobiq islom ahlig`a sodiq ul.  
G`or aro yorig`a aylab jon nisor,  
Yori oning otin aylab yori g`or.  
Ganjikim g`or ichra pinhonlik qilib,  
Ajdahodek ul nigahbonlik qilib...". [42, 26-27-betlar].

Mazmuni:"U (Abu Bakr Siddiq) payg`ambarlar sultonining do`stidir. Mushkulot g`oridagi ikkinchi odam shu edi. Uning sidqi dildan sodiqi va hamrozi, har yaxshi-yomonda hamdamidir. U olam eliga yo`lboshchi edi. Chunki hammadan ilgari kelganlardan han ilgari bor edi. Haqiqatparastlar guruhining boshlig`i udir va islom ahliga sodiq udir.G`orda u yoriga jonini fido qilishga shay turgan, shuning uchun do`sti uni "g`ordagi do`stim" degan.Xazina g`orda yaashiringanida u ajdahodek unga soqchilik qilgan".

Yuqoridagi parchada Muhammad (s.a.v.) g`orda bo`lganliklarida Abu Bakr Siddiqning ul zotni qo`riqlab turishlari holati g`orda xazina bo`lganida uni ajdarho qo`riqlab turishi misol keltirilib dalillangan. She'riy parchada "-dek" o`xshatiah vositasining qo`llanilishi yuqoridagi misolni tashbeh deb o`ylashimizga turki bo`lishi mumkin. Ataulloh Husayniy o`zining badiiy san'atlarga bag`ishlangan asarida tamsil san'atiga ta'rif berar ekan, Shamsi

Qaysning bu san'atni istiora jumlasidan deb bilishini ayatadi. "Ammo istioraning misol yo'llug` na'vidur", deydi Husayniy va tamsilning istiordan a'lороq ekanini aytil quyidagi baytni misol keltiradi:

Ba gulxan gar biso`ziy sandal-u ud,

Chunon boshad, ki dar gulshan kuniy dud.

(Gulxanda sandal-u udni yondirsang, gulshanda tutun tutatgan kabi bo`lasan).

Atoulloh Husayniy tamsilga misol tariqasida keltirgan baytda o`xshatish vositasi qatnashgan bo`lsa-da, biz buni tashbeh san'atining unsuri deb qaray olmaymiz, ya'ni "-day, -dek, misoli, kabi"larga o`xshash vositalarning kelrilishi tashbeh san'ati qo'llanilganini anglatmaydi. Bunda biz, avvalo, misralar mazmunidan kelib chiqamiz. Baytning mirinchi misrasidagi holatning be'mani ekani boshqa bir hayotiy hodisa orqali dalillanyapti. Bunda, tabiiyki, birinchi musrada ifodalangan fikr ikkinchi misradagiga o`xshatilyapti, deymiz, chunki tamsilda keltirilgan misol avvalgi hodisaga o`xshash hayotiy vogelik bo`lishi lozim. Shunga asoslanib, biz ajdaho va xazina bilan bo`g`liq baytni tansil san'ati deya olamiz.

Dostonning muqaddima

qismidan Alisher Navoiyning Shayx Farididdin Attorga madh-u sanosi ham joy olgan va unda ham tamsil san'atining betakror namunasi yaratilgan.

"...Lek haq tavfiq bersa, men gado

Shayxning ruhiga aylab iqtido.

O`yla qushlar nutqini izhor etay,

Bulbul-u to`ti kibi guftor etay.

Kim xaloyiq chun tarannum aylagay,

Qush tili birla takallum aylagay.

Lek surmak nuktani to`ti misol,

Budur insof o`lsa, ey farxunda fol.

Kim bu to`ti to`masi bo`lg`oy shakar,

Ul shakar fikr aylasang bo`lg`ay magar". [42,32-33-betlar].

Mazmuni:"...Ammo haq madad bersa, mendek bir gado ham Shayx ruhidan yordam olib, qushlar nutqini izhor qilmoqchiman, huddi bulbul yoki to`tiga o`xshab so`zlmochiman. Shu tariqa xaloyiqqa qo'shiq kuylab, qush tili bilan

so`zlamoqchiman.

Lekin ma'noni to`ti misol shirin-shakar qilib aytish, albatta, har kimning qo`lidan kelavermaydi. Chunki to`tining yemishi shakar bo`lib, bu shakarni quruq xayol qilish bilangina hosil qilib bo`lmaydi".

Yoqubjon Is'hoqovning "So`z san'ati so`zligi" kitobida tamsil san'atining turi sifatida she'riy matnda sabab, va'j keltirish ma'nolarini ifodalovchi jumlalar ham berilgan. "Kim, nechukkim, chunki, sababki" singari so`zlar ishtirok etgan misralar o`zidan avval kelgan misralardagi fikrning sababini angalatadi va ular tamsil san'ati sirasiga kiradi, olimning fikricha. Shun fikrga asoslanadigan bo`lsak, yuqoridagi she'riy parchada Navoiy "qush tili" bilan so`zlamoqchi ekan va so`zni to`ti misol shirin guftor ila ifodalamoqchi ekanining sababi sifatida "to`tining yemishi shakar" ekan va "shakar yeyish shunchaki o`y-xayol qilish bilan amalga oshmasligi"ni hayotiy misol kelrirish va sabab ko`rsatish orqali dalillaydi.

Demak, dostonning muqaddimaviy boblaridan uch bobda detallashtirilgan tamsildan foydalanilgan bo`lib, ular garchi bu boblarda qo`llanilgan yetakchi badiiy vosita bo`lmasa-da, muallif tomonidan o`z o`rnida mohirona foydalanilgan.

## I.2. Qushlarning uzrxohligiga aytilgan javoblar bilan bog`liq hikoyat va masallarda tamsilning qo`llanilishi

Dostonda o`ttizga yaqin o`rinlarda tamsil san'atidan, tamsiliy hikoyatlardan bundan muatasno, foydalanilgan. Qushlarning uzrxohligi va ularga aytilgan javoblar bilan bog`lik keltirilgan hikoyatlarda o`ndan ziyod o`rinlarda tamsil san'atiga muallif murojaat etgan. Shoir Huhud tilidan vodiylar sifatini bayon etar ekan, ushbu vodiylarni tasvirlashda turli badiiy san'atlarni mohirona qo`llagan. Bir qator badiiy-tasviriy vositalar qatorida shoir **tamsil** san'atidan ham unumli foydalanadi. Vodiylar sifati bayonida, xususan, Talab va Ishq vodiylari bayonida bir necha o`rimlarda **tamsil** qo`llanilgan.

Masalan, Hudhudning Tazarv uzriga javob tarzida aytilgan Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyat keltiriladi. Ulardan biri yo`lsiz, ikkinchisi esa tariqat bilimdoni edi. Biri nuqsonli, ikkinchisi esa komil edi, birining oti Mudbir, ikkinchisining oti Muqbil edi. Bir yo`l aro ikkisi ketib borar edi. Mudbir yo`l azobidan nolisa, Muqbilga shukronalik yo`ldosh edi. Kunlarning birida ular qarshisidan go`zal bir shahar chiqibdi. Hamrohlar bir-birlaridan ajralishibdi. Muqbil faqlar turadigan ko`chaga, Mudbir esa axloqsizlar tomon yuzlanibdi. Mamlakal shohi Muqbilga yuz hurmat va ehtirom ko`rsatib, uni

ko`rgani kelibdi. Shoh u bilan suhbatlaahib turgan paytda yomon xulqli Mudbirni bir guruh odamlar sudrab keluahibdi. Aytishlaricha, bir to`da bezorilar ichibn aysh-u ishrat qurgach ulardan biri Mudbirga "Sen badbasharasan" degan ekan, shu so`zi uchun bu ablah o`sha odamga xanjar urib, halok qilibdi. Shoh buni eshitgach odillik ko`rsatib, Mudbirdan qasos olish haqida hukm chiqaribdi.

Hikoyat quyidagicha tamsil keltirilib yakunlanadi:

"...Xudshikanga yetti ul oliv maqom,

Xudnamo topti bu yanglig` intiqom.

Uchqun o`ldi ozimi charxi barin,

Qoldi quzurot uza inshar chibin". [42, 58-bet].

Mazmuni: "...Kamtar kishi (Muqbil) shu tarzda shoh suhbatiga musharraf bo`lib, oliv martabaga erishdi. Xudbin (Mudbir) esa shu yanglig` jazosini oldi. Uchqun yuksak osmon sari ko`tariladi, yaltiroq chivin bo`lsa axlat ustida qoladi".

Muqbilning pok qalbi va go`zal amallari evaziga shoh marhamatiga sazovor bo`lishi uchquunning yuksak osmon sari ko`tarilishi bilan dalillanayotgan bo`lsa, Mudbirning qora niyatli ekani va axloqsiz qilnishlari sababli jazolanishiga yaltiroq chivinning axlat ustida qolishi tamsil qilinyapti. Bu yerda keltirilgan tamsil ikki qismdan iborat, ijobiy va salbiy xarakterdagi insonlarning taqdiri nima bilan yakun topishini badiiy tasvirlah uchun keltirilgan tamsil ta'zod xarakterida, yoinki biz buni boshqacha qilib ustma-ust qo`llanilgan san'atlar deymiz.

Hudhudning ushbu hikoyati Tazarvning uzriga javoban aytilgan bo`lib, asarda Tazarv o`z husni va chiroyiga ortiqcha baho beradigan, qiyinchiliksiz, aysh-u ishdatda hayot kechirishni xush ko`radigan hudbin va manman qush etib tasvirlangan. Shu jihat bilan u Mudbirga o`xhatilib yuqoridagi hikoyat keltiriladi. Hikoyat davomida Muqbil va Mudbir ta'riflanar ekan, Muqbil dard-u o`dtanishdan gapirar edi, Mudbir esa yaltiroq tashqi ko`rinishlar haqida gap sotishdan to`xtamas edi, deb aytiladi. Muqbil yoniq qalbli va pok, Mudbir esa zohirparast va axloqsiz edi. Shu sababli ham tamsildagi osmonlarga ko`tarilgan "uchqun" Mubdilga mengzalgan bo`lsa, Muqbil chivinga, aniqrog`i, yaltiroq chivinga o`xhatiladi va, tabiiyki, chivinning joyi axlatxonadan o`zga yer emas.

Yuqoridagi hikoyatda tamsil san'ati hikoyat so`ngida keltirilgan bo`lib, hikoyatni xulosalash vazifasini ham bajargan.

Qushlar Hudhuddan o`zlarining Simurg`ga bo`lgan nisbatlarini so`raydilar: "Qatraning dengizga nisbati ne bo`ladi?". Hudhud quahlarga javob beradi, Simurg` zuhuridan xitob qiladi. Simurg`ning bir oliyanob shahanshoh ekanini, uning butun olam go`zalligini o`zida saqllovchi zoti avval

maxfiy bo`lganini aytadi. U o`zining ko`rinishini tamanno qilib, asta-sekin jilvalana boshladi. Bu jilvalanishda juda ham ko`p soyalar oshkor bo`la boshlaydi. Demakki, qushlar bilan Simurg` o`rtasidagi nisbat ham shunda edi. Buni anglaganlar esa sir saqlashlari lozim. Chunki bu sir kimga ma'lum bo`lsa, u haqqa cho`madi, u bilan bir butunga aylanadi, qorishib ketadi. Hudhud aytmkqchiki, qushlarning barchasi soyalardir. Agar Simurg` o`z soyasini istab, jilva etmaganda soya egasi bo`lmasdi. Aynan shu jihat bilan bog`liq tamsil keltiriladi:

"...O`zni Simurg` istasa erdi nihon,

Soyasi bo`lmas edi hargiz ayon.

Soyaafkanning vujudidin dalil,

Soya zohir bo`lgmog`in tahqiq bil". [42, 84-bet].

Ya'ni, bordi-yu Simurg` o`zini yashirin tutishni xohlasa, uning soyasi hech qachon ayon bo`lmasdi. (Zeroki) Soyaning oshkor bo`lmog`i soya beruvchining vujudi haqida dalil bo`la oladi. Go`zal tasvir, inkor qilib bo`lmas dalil misol keltirilgan. Haqiqatdan ham, soya bormi, demak, albatta, qayerdadir soya egasi bo`ladi. Shoir Hudhud tilidan aytmoqchi bo`lgan muddaosi ham shundan iborat, ya'ni biz barchamiz oliy Zotning soyasimiz.

Yuqorida biz Hudhudning nutqidagi detallashtirilgan tamsilni ko`rib o`tdik. Hudhudning ushbu javobidan so`ng tamsiliy hikoyat keltiriladi. Hikoyat husnini namoyish qilishga ko`zguni vosita qilgan shoh haqida. Jamoli osmondag'i to`lin oy kabi bir shoh bo`lgan ekan. Go`zallikda benazir ekan. Olamni uning go`zal yuzining ovozasi tutgan ekan. Ammo uninh husni halok qilguvchi ekan. Xalq uning bu tarzdagi "qatl"idan behad qirilibdi. Shoh elga o`z jamolini ko`rgazish uchun bir ko`zgu yasab, taxt oldiga o`rnatmiqni hukm qilibdi. Hukmi bajarilgach u oynaga qarab, o`z husniga nazar solar va el ham o`sha manzara vositasida undan bahra olibdi. Toki bunday ko`zguni yasamagunlarichaunga ko`z tashlagan kishi uning husnidan bahramand bo`la olmadi. Shunday qilib, ham uning o`zi o`z husnidan bahra topdi, ham unga qaragan kishilar bahra oldi.

"Sen bu ko`zguni ko`lgil deb xayol qil",- deydi Hudhud:"Unda o`sha jamol o`z aksini ko`rsatadi". Qasrni inson tanasi, undagi ko`zguni ko`ngil deb ta'riflaydi muallif. Bu ko`zguda shoh husniga nazar tashlash lozimligini uqtiradi. Buning uchun, avvalo, ko`zguga jilo berish kerak.

Hikoyaning shu yeriga kelib, aniqrog`i, yakuniy qismida quyidagicha detallashtirilgan tamsil keltiriladi:

"Ko`zgu ravshanroq necha qilsa zuhur,

Zohir o`lg`ay aks onda bequsur".

(Ko`zgu qanchalik ravshab bo`lsa, aks ham shunchalik benuqson bo`ladi).

Ko`rib turganimizdek, tamsiliy hikoyatning so`ngida detallashtirilgan tamsil keltirigan va u hikoyatni xulosalash vazifanini bajargan.

Dostondagi hajmi eng katta hikoyat Shayx San'on haqidagi hikoyat hisoblanadi. Tarso qiz iymonga kelib, Iso da'vati bilan Shayx ortidan yo`lga chiqadi. Bundan xabar topgan Shayx ortaga qaytganida qiz yo`lda behush yotgan edi. Qiz ko`zlarini ochgach Shayxdan jabr-u zulmlari uchun kechirim so`raydi. Aynan shu o`rinda, qizning tilidan aytilgan afvda tamsil san'atidan yuksak did bilan foydalangan:

"Dedi:"Ey taqvoshiori dinpanoh,

Qaysi til birla bo`loyin uzrxoh.

Tosh otar tifli laimi shum baxt,

Soya solur boshig`a oliv daraxt.

Bosh chekib gulgundin yuz ming no`gi xor,

Gul ochib har xordin abri bahor.

Garchi jurmum haddan ortiq poyondin fuzun,

Lutf-u ehsoning sening ondin fuzun". [42,119-bet].

Qiz Shayxga:"Sendan qaysi til bilan kechirim so`ray olaman? Badbaxt bebosh bolalar daraxtga tosh otishadi, oliv daraxt ularga aoya solib turaveradi. Agar gul butasida yuz ming tikan bosh ko`tarsa, har bir tikandan bahor bulutlar tufayli gul ochadi. Garchi gunohim haddan tashqari ko`p bo`lsa-da, lekin sening lutf-u ehsoning undan ham ortiqroq".

Avval ko`rib chiqqan tamsillarimizdan Shayx San'on hikiyatidagi ushbu tamsilning farqi shundaki, unda avval tamsil, so`ng tamsil hchun asos bo`lgan bayt keltirilmoqda.

Odatdagagi holatda avval biror-bir narsa-hodisa keltirilib, so`ng shunga o`xshash hayotiy misol ko`rsatilar edi. Demak, asar muallifining tamsil qo`llashdagi o`ziga xosliklardan biri shuki, shoir tamsilning odatdagagi joylashish tartibini o`zgartiri, badiiy-estetik vositani o`ziga xos uslubda qo`llaydi.

Yo`lda qushlar yo`lboshchilik uchun qur'a tashlashga majbur bo`ladilar. Chunki Hudhud bu taklifni qabul qilmaydi.

Qarangki, qur'a aynan unga tuahgach u rozi bo`ladi. Shu qismda har bir qavmga yo`lboshchi, sardor bo`lishi lozimligi quyidagi tamsil bilan dalillanadi:

"Qo`ykim suv, o`tqa boshqarmas shubon,

Ul surukni aylagil zoye gumon.

Har jamoatqaki yo`qdur peshvo,

Yo`lg`a ermastur qadam qo`ymoq ravo". [42, 122-bet].

(Agar qo`ylarning suv va o`tidan cho`pon xabardor bo`lmasa, bu podani tamom bo`ldi, deb gumon qilaver. Har bir jamoaga peshvo bo`lmasa, yo`lga chiqish to`g`ri bo`lmaydi).

Yuqoridagi ikki bayt ham tartib jihatidan avval tamsil, so`ng tamsilga sabab bo`lgan bayt tarzida joylashgan.

Qushlardan biri Hudhudga shunday deydi:"Ey rafiq! Men kamolot dengizida g`arq bo`ldim. Nafada kamolotga erishib, undan dilim istagan maqsadga muyassar bo`ldim. Bu yerda murodim hosil bo`lgan ekan, yo`l azobini tortmoq man uchun mushkildir".

Hudhudning dashnom va nasihat aralash javobida tamsil san'atidan o`rinli foydalanilgan:

"...Kim o`zin komil ko`rar noqisdir ul,

Nuqs bermaydur kamoli sori yo`l.

Mehr kun tush o`zni ko`rg`och barkamol,

Anga yuzlandi hamul soat zavol". [42,177-bet].

Hazrat Navoiyning so`z tanlashdagi, jumla tuzishdagi mahoratiga til ojiz. Haqiqatdan ham, quyoah tush chog`i eng yuqoriga ko`tarilgan payt, shundan so`ng u yana pastga tushadi. Bu yerda tashxis ham ko`rinib turibdi, ya`ni quyosh o`zini yuqorida deb bilgach zavolga yuz tutishi,pastga tushishi. Tabiatdagi biz uchun oddiy bo`lgan bir bir holatni shoir sinchkovlik bilan kuzatgan va ijodida beqiyos tarzda qo`llay olgan. Kamtarlikni unutgan, manmanlikka berilgan insonlarga nisbatan qo`llash uchun juda ta'sirli va hayotiy lavha.

CLI (151) bob "Ishq vodiysining sifati" deb nomlanadi.

"Chun Talab vodiysini qilding tamom,

Qo`yg`ung ul dam Ishq vodiysisig`a gom.

Ishq keldi mash'ali getifuro`z,

Dema mash'al, shu'lai ofoqso`z.

(1.) Ishq aro har kimsa darxur bo`lmag`ay,

O`tqa loyiq juz samadar bo`lmag`ay.

(2.) Ishq aro pok-u qalandarlik kerak,

Shula bahrida samandarliq kerak.

(3.) Kuymak ishtur oshiqi devonag`a,

Shula ichra o`ylakim parvonag`a". [42,194-bet].

Ya'nikim, "Talab vodiysini tamom qilganingdan so`ng Ishq vodiysiga qadam qo`yanan.

(1.) Ishq so`nmas bir mash'aldir. Uni mash'al dema, butun olamni yondiruvchi shula degil". Bayt tushunarli, e'tiborimizni **tamsil san'ati** qo`llangan keyingi baytga qaratamiz: "Ishqqa har kim munosib bo`lavermaydi. Samandardan boshqa olovga loyiq bo`lmagay." (2.) Ishq aro botirlik va qalandarlik lozim, **shula dengizida samandar bo`lmoqlik kerak.** (3.) Oshiq-u devonaning ishi kuymoqdir. **Parvonaning shula ichra kuygani kabi".**

Yuqoridagi parchada ketma-ket kelgan uch baytning har birida tamsil q'ollanilgan. Shu o`rinda hazratning nazmda ushbu san'atni qo`llashidagi xarakterli xususiyatlaridan biri yuzaga chiqadi. Ya'ni, shoir tamsil san'atini (turli o`rinlarda boshqa san'atlarni ham) ketma-ket keltirib, go`yo zanjir holida tizadi. Ma'lum bir san'at silsilasini yuzaga keltiradi. Shuni hisobga olib yuqoridagi holatni tamsiliy silsila deb atasak bo`ladi.

Olov(o`t) - ishq timsoli, bobning ikkinchi baytidayoq bu fikrimiz tasdiq topadi:

"Ishq keldi mash'ali getifuro`z,

Dema mash'al, shulayi ofoqso`z".

Umuman, CLI(151) bob to`laligicha "o`t ichida qolgan", deyish mumkin. Bobda mash'al, samandar, shula, parvona, kul, xonasoz, ajdar, dud, otashgoh, otashzada, otashkada, quyun kabi so`zlarning ko`p bora qo`llanilishi fikrimiz dalilidir. Zero, "Ishq vodiysining sifati" bayon etilmoqda, tabiiyki, o`t ishq timsoli ekan, ishq bilan bo`g`liq bo`lgan har bir holat obrazli tarzda o`tga bog`liq buyum,

jonzotlar va holatlar bilan tasvirlanadi.

Ishq vodiysining sifatini bayon etishda keltirilgan datstlabki tamsillar orqali, tamsiliy silsila orqali hazrat Navoiy fikrni obrazli rivojlantirish maqsadini ko`zda tutgan. Aynan shunga o`xshash holatni Istig`no vodiysining tavsifida ta'zod san'atini ketma-ket kelgan baytlarning har birida qo`llaganini kuzatishimiz mumkin:

**" Yetti daryo onda bir qatra matar,**

**Yetti ko`k xashxosh chog`liq muxtasar.**

**Yetti do`zax onda bir uchqun kibi,**

**Sekkiz do`zax onda bir shudrun kibi.**

**Mo`rlarg`a to`ma onda barcha sher,**

**Pashshasi pil ovlamoqqa bas daler.**

**Yetti kishvar uzra shohi qahramon**

**Bir gado** onda hamon-u ul hamon...". [42, 202-bet].

Yuqorida ishqqa mayl bergan, o`zini ishqqa topshirgan kishi holiga samandar tamsil keltirildi. Shu o`rinda biz **o`xshatilmoxda** deb ham aytishimiz mumkin, ammo bunda yuqoridagi misol **tashbihga** yo`g`rilib qoladi go`yo. Ammo tashbih bu serqirra badiiy san'at ekanini va u ko`pgina boshqa san'atlarning yuzaga kelishida asos bo`lganini unutib qo`yamiz. Jumladan, tamsil san'atining ham asosida tashbih yotadi, ya'ni bir narsa yoki voqeа-hodisani tushunarliroq va, albatta, ta'sirliroq qilib tasvirlash uchun real hayotga yaqin bo`lgan( aynan hayotiy bo`lmasligi ham mumkin, shuning uchun realga yaqin deyapmiz) boshqa narsa yoki voqeа-hodisa misol keltiriladi. Misol keltirish uchun esa, albatta, misol keltirilayotgan voqelik misol keltirish uchun asos bo`lgan voqelikka qaysidir xususiyati bilan **o`xshash bo`lishi kerak.**

Shu jihatdan tamsil

tashbehi muzmar( yashirin o`xshatish bo`lib, bunda o`xshatish vositalari va sababi ko`rsatilmaydi, mushabbah va mushabbah-bihi orasidagi yashirin aloqani kitobxonning o`zi topishi kerak)ga o`xshab ketadi. Yuqorida berilgan parchada ham ishq dastlab olovga o`xshatilmoxda, ishqqa o`zini topshirgan kishi olovda kuyishi kerakligi uqtirilmoqda va bu ish hammaning ham qo`lidan

kelavermasligi aytilyapti. Shuni **dalillash** uchun esa tamsil qo`llanilmoqda: axir hamma ham samandardek olovga dosh bera olmaydi. Yuqoridagi tamsilda ishqqa xohish etganlarning holini bayon etishda samandar tamsil qilingan bo`lsa, keyingi misralarda chin oshiq va soxta oshiqni solishtirilib, parvona va kapalak tamsil qilinadi. Ushbu tamsil ham avvalgilariga mantiqan bog`langan bo`lib, tamsiliy silsilaning davomidir:

(4.) "...Dema ra'nolar ishi farzonaliq,  
Ko`palak haddi emas parvonaliq.  
Jilva aylar ko`palak gullar uza,  
Tifllarga husn-u zebim ko`rguza.  
Qani pashmin kisvati devonadek,  
Shulag`a urmoq o`zin parvonadek.  
Ko`palakda garchi bo`lg`ay rang-u xol,  
Bo`lmaq`ay parvona yanglig` so`z-u hol"

Demak, " donolik ra'nolar, ya'ni go`zallar ishi bo`lmaganidek, parvona bo`la olishga kapalakning haddi sig`maydi. Kapalak yosh bolalarga o`z husni va zeboligini ko`rsatib, gullar uzra jilva qilib uchib yuradi. Ammo uning qo`lidan janda kiygan devona (faqir-parvona)ning ishi kelmaydi. Garchi kapalak o`zining turli rang va xollari bilan ko`zga chiroyli ko`rinsa-da, u parvona kabi yonib kuya olmaydi". Yuqoridagi misoldan shunday xulosaga kelish mumkin, agar biz tamsil san'ati qo`llangan parchani olmoqchi bo`lsak, faqatgina san'at yuz ko`rsatgan o`rinni emas, balki tamsilni yuzaga keltirishni talab etgan (misol keltirilishini, dalillanishni istagan deb ham aytish mumkin) fikr ham keltirilishi kerak. Zero, tamsil san'atining sharti shuki, shoir (g`azalning) 1-misrada ifodalangan fikrga keyingi misra(lar)da o`xshash hayotiy misol keltiradi. Yuqorida keltirilgan to`rt tamsilning har biri mazmunan bir-biriga bog`g`langan. Agar dastlabki uch o`rinda tamsil bir bayt doirasida, ya'ni toq misrada shoirning asosiy fikri, juft misralarda esa o`sha fikrni dalillash vositasi, tamsil qo`llangan bo`lsa,

to`rtinchi tamsil (kapalak va parvona tamsili) ning o`zi to`rt baytni qamrab olgani holda avvalgi keltirilgan fikrlarni barchasi uchun umumiydir. Demak, xulosa vhiqarish mumkinki, tamsil san'ati faqatgina bayt doirasida bo`lmasdan ( g`azalda shu ko`rinishda qo`llanadi) , kengroq masshtabda, birdan ortiq baytlarda kelishi mumkin. Bu holat , asosan, dostonlarda, jumladan, "Lison ut-tayr"da ham va qit'alarda kuzatiladi.

Aytib o`tilganidek, Navoiy ishq vodiysining sifatlarini bayon etar ekan, olov(mash'al, shula), olov bilan bog`liq bo`lgan jonzotlar, umuman, olov-o`t bilan aloqador tasvirlarni keng qo`llaydi. Tabiiyki, bu "ishq"ning xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Yana bir sababi shundaki, vodiylar: ishq, ma'rifat, istig`no, hayrat, tavhid, fano oddiy o`quvchi tasavvuri uchun biroz qiyinchilik tug`diruvchi masala. Shu sababdan ham shoir majozga, badiiy tasvir vositalariga keng o`rin beradi.

" Ishq vodiysi sifati" bayonidagi keyingi o`rinlarda ham Navoiy o`t bilan bog`liq tamsillardan foydalanadi. Zero, o`t - ishq timsoli.

"Fard emas ushshoq ko`ngli ohdin,

Ne chiqar juz dud otashgohdin" (195-bet).

Ya'ni, " oshiqlar ko`ngli o`tli oh chekishdan begona emas, axir otashgohdan duddan boshqa yana nima chiqishi mumkin?".Shu tasvir g`oyatda ahamiyatli. Bunda noreal ( oshiqlar ko`ngli o`tli ohdan begona emasligi) tasvir, real ( otashgohdan doimiy tutun chiqib turishi) tasvir bilan dalillanmoqda.

Bunda **tamsilning** xarakterli xususiyati - bildirilgan fikr (mubolag`aviy bo`lsa ham) real yoki reallikka yaqin( mubolag`adan holi) misol bilan dalillanishi kerak. Keyingi o`rinlarda ham "o`tli tamsil"lar "yonib turibdi". Bunda ham qatorasiga to`rt bayt ketma-ket tarzda qo`llanilgan:

(1.) "Kimsa bo`ldi ishq aro tushkan dam o`t,

O`tqa nekim tushti bo`ldi ul ham o`t.

(2.) Ishq o`rtar kim sorim oylanur,

Kim tushar o`t davrasig`a o`rtanur.

(3.) Ishq sargardoni ermastur uyun,

Kim erur jismig`a o`t tushqon quyun.

(4.) Ishq aro lozimdur o`rtanmak-o`q,

O`t aro kuymakdin o`zga chora yo`q. [42, 195-bet].

Mazmuni: "Kishi ishqqa mubtalo bo`lgan dam, ya'ni ishq aro tushgan dam o`t bo`ladi. **Axir o`tga neki tushsa, u ham o`t bo`ladi** (1-tamsil); Ishq kimning atrofida aylansa, uni o`rtaydi. **Chunki o`t domiga tushgan kuyadi, o`rtanadi** (2-tamsil); Ishq sargardoni bo`lmoq o`yin emas. **Axir jismiga o`t tushgan kimsa quyunga ayladi** (3-tamsil); Ishq aro faqat o`rtanmoq lozim. **O`t aro kuymoqdan o`zga chora yo`q** (4-tamsil)".

Dostonda detallashtirilgan (minyatyr) tamsillar qushlar uzrxohligi va ularga aytilgan javoblar bilan bog`liq hikoyat va masallarda ko`plab o`rinlarda uchraydi. Aynan shu o`rinlardagi tamsillar muallifning ushbu san'atni qo`llashdagi kamoloti vamahoratini ohib bergen desak, mubolag'a bo`lmaydi.

## **II bob. Vodiylar talqinida tamsiliy hikoyatlarning qo`llanishi**

### **II.1. Talab va Ishq vodiylarining sifati bayonidan so`ng keltirilgan tamsiliy hikoyatlar.**

Tamsil arabcha "misol keltirish" ma'nosini anglatib, dalillash san'ati ekani va bu san'at, tasviriy vosita yordamida asar badiiyati va undagi hissiy ta'sirchanlik

oshishi ma'lum bo`lgani holda, shuni aytish kerakki, bu fuksiya tamsil san'atining bir qirrasi xolos. Tamsil syujetli (voqeaband) asarlarda voqealar tizimini mukammallashtirish vazifasini ham bajaradi. Shundan kelib chiqib, "Lison ut-tayr" dostonidagi ayrim hikoyatlar tamsiliy xarakterda, degan xulosaga kelish va ularni tamsiliy hikoyat( yoki tamsil-hikoyat) deb atash maqsadga muvofiq va bu tamsiliy hikoyatlar dostonda voqealar tizimining mukammallahuviga, asarning hissiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Asarda yetti vodiy ta'rifi berilgan va har bir vodiy tasviridan so`ng tamsiliy hikoyatdan foydalanilgan. Vodiylar talqinida qo`llanilgan tamsiliy hikoyatlar quyidagilardan iborat:

1. Talab vodiysi bayonidan so`ng oy chehrali zulkor shahzoda va ikki xasta oshiqi zor haqidagi tamsil-hikoyat.
2. Ishq vodiysi sifatidan so`ng keltirilgan Asmai bilan bog`liq hikoyat.
3. Ma'rifat vodiysi tavsifidan so`ng ko`rlar va fil to`g`risifagi tamsiliy hikoyat.
4. Istig`no vodiysi vasfidan keyin shaxmat haqidagi tamsil-hikoyat.
5. Tavhid vodiysining bayonidan so`ng tamsil qilingan Mansur Xalloj to`g`risidagi hikoyat.
6. Avval visol umidida o`rtangan, visoldan so`ng yana hijronda qolgach hayratga cho`mgan oshiq haqidagi Hayrat vodiysi ta'rifidan so`ng keltirilgan tamsiliy hikoyat.
7. Faqr-u fano vodiysining sifati bayonidan so`ng Shayx Abul Abbas haqidagi tamsil qilimgan hikoyat.

Yuqoridagi yetti vodiy tasviridan so`ng keltirilgan tamsil-himoyatlardan uchtaşı tarixiy shaxslar, ularning hayotida yuz bergen voqealar bilan bog`liq (Asmai, Mansur Xalloj, Shayx Abul Abbas). Talab va Hayrat vodiysidan so`ng keltirilgan tamsil-hikoyatlarda mubolag`aviy tasvirlar ko`pligi bilan ajralib tursa, Ma'rifat vodiyaidan so`ng keltirilgan ko`rlar va fil haqidagi hamda Istig`no vodiysi vasfidan so`ng keltirilgan shaxmat to`g`risidagi tamsil-hikoyatlar hayotiy (real) voqelikka juda yaqin ekani bilan boshqalaridan farqlanib turadi. Shu o`rinda savol tug`ilishi mumkin: tarixiy shaxslar bilan bog`liq hikoyatlar hayotiyligi jihatidan ulardan ustun emasmi? Yuqoridagi uch kiyoyatning bosh qahramonlari tarixiy shaxslar bo`lsa-da, ulardagi voqealar kundalik hayotda uchrab turishi biroz

munozarali holar. Masalan, Mansur Xalloj bilan bog`liq hikoyatda Mansurning tushi bilan bog`liq holat, Asmaiyl haqidagi hikoyatda esa noma'lum oshiqning Asmaiyning toshga bitgan birgina maslahati tufatl o`z joniga qasd qilish holati bugungi kun o`quvchisi uchun u darajada real tasvir bo`lib ko`rinmasligi mumkin. Bunga sabab mumtoz adabiyotda valiysifat insonlar hayoti bilan bog`liq voqealarning afsonaviy voqealarga aylanib ketishidir. Shaxmat o`ynaguvchi ustod va shaxmat donalari hamda ko`rlar va fil to`g`risidagi ikki hikiyat esa g`oyatda hayotiy tasvirlangan.

Qushlardan birining Hudhudga: "...Asli manzilga ne yanglig` yetkobiz?"- deb bergen savolidan so`ng Hudhud ularning oldida yettita katta vodiy : Talab, Ishq, Ma'rifikat, Istig`no (Ehtiyojsizlik), Tavhid (Yagonalik), Hayrat va Faqr-u fano (Faqirlik va yo`qlik) turganini aytadi. Hudhud bergen javobida har bir vodiyning ta'rifini bayon etgandan so`ng vodiy sifatini ochib berish uchun bir hikoyat aytadi. Shoir vodiylar sifati va shu vodiya aloqador tamsiliy hikoyatni alohida-alohida boblarda keltiradi. Talab vodiysining sifatidan so`ng oy chehrali zulmkor shahzoda va ikki xasta oshiqi zor haqidagi hikoyat keltiriladi.

Go`zalligi oldida hatto Yusuf ham qul bo`lgulik bir shahzoda o`zi oshiq aylagan elga hech ham rahm-shafqat qilmas edi. Uning ko`chasiga borishdan hatto shamol ham jon hovuchlar, u tomonga esmoqdan joniga qo`rquv tushar edi. Kunlarning birida shahzoda sahroda turgan elga nazar solib, ko`zi ular orasidagi ishq zanjiriga mubtalo bo`lgan ikki xasta oshiqi zorga tushadi va o`z mulozimlariga ulardan birini zindonga mahbus qilib, ikkinchisini o`ziga itboqarlik xizmatiga tayinlaydi.

Bir dardmand kishi ulardan:"Azob-uqubat ichra sizning holingiz qanday kechmoqda?"- deb so`raydi. Shunda itboqarlikka tayinlangan oshiq uning uchun bu azob emas, rohat ekanini, garchi uning itlariga xizmatkor bo`lsa-da, bu itlar orasida boshliq ekanini aytadi. Zindondagi oshiq:"Uning ishqini ko`nglimga zo`r kelib, bundan agar mening turar joyim go`r bo`lsa ham rozi edim",-deb, javobini quyidagicha yakunlaydi :"Garchi holo band aromen ustuvor, Vaslidin ko`nglum erur ummidvor". Endi keltirilgan tamsiliy hikoyani talab vodiysi sifati bilan qiyoslaylik.Bu manzilga, talab vodiysiga qadam qo`ygan solik noyob durni qo`lga kiritishni xohlaydi, ammo topa olmaydi. Bu holat hikoyatdagi oshiqlarning shahzoda vasliga yetishni istashlari-yu, ammo yeta olmasliklari tamsil qilingan bo`lsa, solikning o`z yo`lida g`ov bo`ladigan mol-mulk va boshqa narsalardan voz kechib, foniylarni baland ovozda ulug`lash holatiga ikki xasta oshiqning shahzoda tayin etgan jazolarga ko`nishi tamsildir. Agarki solik dunyo matosidan voz kechsa, solikda o`zgacha sifatlar paydo bo`la boshlaydi, ya'ni xazinadan solikning vayronasiga obodlik kelib, zoti nuridan joniga yorug`lik

yetishadi.Tamsiliy hikoyatda solikning bu holi dardmand kishining savoliga ikki oshiqning bergan javobi dalildir.Talab vodiysiga qadam qo`yan inson majozan Iloh vasliga talabgor bo`lgan oshiq timsolidir.Tamsil-hikoyat so`ngida o`z talablariga sadoqatli bo`lgan oshiqlarga shahzoda katta ixlos ko`rsatib, ularni eng yaqin mahramlariga aylantiradi.Tasavvufda talabida sodiq bo`lganlar oqibat samaraga erishishlari, zoti mutlaq lutfiga sazovor bo`lishlari aytildi.

Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqov badiiy san'atlarga bag`ishlangan "So`z san'ati so`zligi" kitobida tamsilning bir necha turlari, jumladan, lavha, radd ul-matla' va fikr hamda xulosalarni hayotiy detallar asosida dalillash singari ko`rinishlari mavjudligi ta'kidlanib, bu san'at turli janrlarda turlicha qo`llanilishi aytib o`tilgan [24, 63]. Filologiya fanlari nomzodi H. Eshonqulovning Y. Is'hoqov ta'rifidan kelgan xulosasi bo`yicha, tamsilning poetik syujet - lavha ko`rinishi nasriy va liro-epik asalardagi hikoya ichidagi tamsiliy hikoyalarni xotirga keltiradi. "Lison ut-tayr"ning liro-epik (doston)asar ekanini va unda hikoyatlarning qo`llanilishidagi o`ziga xosligini inobatga olsak, dostondagi har bir vodiy tasviridan so`ng keltirilgan hikoyatning tamsiliy hikoyat ekaniga shubha yo`q.

O`z talabida sadoqatli bo`lgan tolib ishqqa ham tayyor bo`lishi lozim.Asar syujeti bo`yicha Talab vodiysini tamom qilinganidan so`ng Ishq vodiysiga qadam qo`yiladi. Ishq vodiysi shoir tomonidan quyidagicha tavsiflanadi:

" ...Ishq keldi mash'ali getifuro`z,  
Dema mash'al, shulayi ofoqso`z.  
Ishq aro har kimsa darxur bo`lmag`ay,  
O`tqa loyiq juz samandar bo`lmag`ay.  
Ishq aro pok-u qalandarlik kerak,  
Shula bahrida samandarliq kerak... ". [42, 194-bet].

Bobning dastlabki baytlaridan anglashilib turganidek, ishq so`nmas bir mash'al. Ishqqa har kim munosib emas. Ishq ichra kuyib- yonmaganni ishqqa berilganlardan deb bo`lmaydi, u oshiq sanalmaydi. Ishq ahli o`rtanish bilan, yonish bilan o`zini shod etadi. Oshiq kishining asosiy ishi jon tark etish deb bilish lozim. Yor uchun o`lmoq esa oshiq uchun arzimas ishdir. Endi Ishq vodiysining tavsifi bilan bog`liq bo`lgan tamsil-hikoyatga qarasak, Asmaiyl bilan bog`liq hikoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Haj sari ketayotgan Asmaiyl bir chashma yonida to`xtaydi, hordiq chiqaradi.Chashma boshida xat yozilgan bir toshni ko`radi. Unda:

"...Chorasi oning chu bo`lg`ay bu roz.

Kimsa bo`lsa ishq zori naylasun?

Bo`lmasa sabr-u qarori naylasun?"- deb, ya'ni " Bu sirning chorasini topsangiz. Agar bir kishi ishqqa mublato bo`lib, ishq uning sabr-u qarorini olgan bo`lsa, ne qilsin?"- deb yozilgan edi. Asmaiyl bunga javoban toshga quyidagilarni bitadi:

" Kim bu vatra ichra istar poklik,

Qilmasun fosh etkoli beboklik",- ya'ni kimki bu halokatli girdobga tushib, undan pok chiqmoqchi bo`lsa, o`zi tushgan yo`ldan qo`rqmasligi kerakligini aytadi. Asmaiyl shu mazmundagu javobini yozib, bu manzilni tark etadi. Ertasi kuni shu joyga kelib xat bitilgan toshga nazar soladi. Qarasi oldingi kotib (noma'lum oshiq) yana quyidagilarni yozib qo`ygan:

"Kim agar ul oshiqi ozurdajon -

Bo`lsa pok-u, tutsa ishqin ham nihon,

Lek ul shavq-u muhabbat shiddati -

Tez o`lub, toq o`lsa oning toqati,

Vasl bo`lsa ehtiyoji naylasun?

Topmasa bu ish iloji naylasun?"

Asmaiyl bu favqulodda sirni ko`rgach toshga shunday deb yozdi: " Ishq ichra men nasihat qilgan o`sha dardli va notavon kishi bu nasihatlarimdan o`z maqsadiga erishmagan bo`lsa, o`lsin va ishq o`tidan o`zini xalos qilsin".

Hikoyatning shu qismidayoq Ishq vodiysi sifatini ochib berishda Asmaiyl va noma'lum oshiqning toshga bitilgan savol-javobi bir vosita hisoblansa, shu vosita tamsiliy hikoyat orqali amalga oshirilgani yaqqol ko`rinadi. Chunonchi, ishqqa mubtalo va sabr-u qarori ado kishining ne qilishi kerakligi haqidagi savol va Asmaiyning javobikim, bunday insonning o`zi tushgan yo`ldan qo`qmasligi kerak ekani. Noma'lum oshiqning ishq shiddati tez bo`lib, vaslga ehtiyoj sezganda nima qilish lozimligi to`g`risidagi savoliga Asmaiyl agarki avvalgi nasihatlar orqali maqsadga erishilmagan bo`lsa, bunday inson o`libgina o`zini ishq o`tidan xalos qilishi mumkinligini aytadi. Demak, tamsil-hikoyatning shu yergacha bo`lgan qismidayoq Ishq vodiysi sifatlari ochib berilgan. Ishq vodiysi sifati bobida kimki o`tga tushsa, ya'ni ishqqa mubtalo bo`lsa, kuyish-yonishdan boshqa chorasi yo`q. Chunki o`tga tushgan ashyoning kuymoqdan o`zga iloji yo`q, deyilgan. Tamsiliy hikoyatda shu mazmun Asmaiyl va oshiq kotibning savol-javobi orqali

berilmoqda. Hikoyatning davomida Asmai oshiqning o`libgina ishq o`tidan xalos bo`lishi mumkinligini yozgach, ertasi kuni yana chashma yoniga qaytib kelib toshga qarasa, bu safar kotib hech narsa bitmagan, toshga oshiq bosh urganidan tosh sinib ketgan edi. Oshiq qonidan chashma gulgun rangga kirgan edi. Nasihatgo`y Asmaiyning bergen o`giti tufayli oshiq o`z jonini tark etib, jonini hijron azobidan qutqargan edi. Shu o`rinda ham Ishq vodiysining sifatlaridan biri oydinlashadi. Shoirning dedigi kabi:

"Ishq barqi xonumonni kuydirur,

Xonumon yo`qkim, jahonni kuydirur.

Tarki jon oshiqqa varzish onglagil,

Yor uchun o`lmak kamin ish onglagil".

Ya'ni ishq chaqmog`i xonumonni kuydirib yuboradi, xonumongina emas, butun jahonni kuydiradi. Oshiq kishining asosiy ishi jon tark etish, yor uchun o`lmoq oshiq uchun arzimas ishdir. Tamsiliy hikoyatdagi oshiq ham aynan shu yo`lni tutdi. Agarda shoir vodiy tasvirini tamsiliy hikoyatsiz berganda vodiyning sifati, shoir nazarda tutgan ishqning mohiyati hozirgi kabi yaqqol va ta'sirli zohir bo`lmasdi. Shu bilan birga agar vodiy sifati keltirilgan bob bo`limganda edi, biz Asmai va noma'lum oshiq kotib to`g`risidagi hikoyatni, albattaki, tamsiliy hikoyat demagan bo`lar edik. Shoir har bir vodiy ta'rifidan so`ng fikrini dalillash uchun tamsildan foydalangan va bu boshqa liro-epik asarlarda bo`lgani kabi voqealar tizimining mukamallashuviga xizmat qiladi.

## **II.2. Ma'rifat, Istig`no va Tavhid vodiylari vasfida tamsil-hikoyatning qo`llanilishi**

"Lison ut-tayr" dostonining zamon va makonlararo uyg`unligi, ya'ni xronotopining ko`لامи aniq, ammo u o`zining qamrovi doirasi bilan aql potensiyasi chegaralariga sig`maydi. Boshqacha aytganda, doston xronotopini aql vositasida idroq qilish mumkin emas. Qolavesa, asarning asl mohiyati ham laduniy-ezoterik voqelikni ifodalashida namoyon bo`ladi. Ayni jihatdan Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni jahon adabiyotida yaratilgan aksariyat yozma adabiyot namunalaridan ustunlik qiladi [35,105-111]. Dostonning shu xususiyatini inobatga olib aytish mumkinki, doston syujetidagi zamon va makon muvozanati hamda laduniy voqelikni ifodalashda tamsiliy hikoyatlar yetakchi mavqega ega. Oddiyroq

qilib aytganda, dostonda keltirilgan tamsil-hikoyatlar o`quvchi ko`z o`ngida real makon va zamomni gavdalantiradi, zotan, laduniy voqelikni ifoda etishning maqbul usuli hayotiy misol keltirishdir, misol bo`lganda ham detallar asosida emas, hikoya asosida dalillangan misol keltirish darkor. Shu o`rinda aynan tamsil-hikoyatlar voqealar tizimining mukammallahuviga, rivoji xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlar tasdig`ini Ma'rifat vodiysining vasfi va ko`rlar to`g`risidagi hikoyat misolida aniq ko`rish mumkin. Avval ushbu vodiy ta'rifiga ahamiyat beraylik:

" Ma'rifat vodiysin ondin so`ngra bil,  
Dashti bepoyonlig`in nazzora qil.  
Kimki bu vodiyg`a bo`ldi muttasif,  
Topti anda hollarni muxtalif.  
Vodiyedur yuz tuman ming onda yo`l,  
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.  
Ixtilofi juzv ila kul mundadur -  
Kim taraqqiy-u tanazzul mundadur...". [42, 198-bet].

Deyilmoqdaki, ishq vodiysidan so`ng ma'rifat vodysi keladi. Bu joyning nihoyatda bepoyon bir dashtdan iborat ekanligiga ko`z tashla. Kimki bu vodiyga kirsa, u yerdagi ahvolning ixtilofli ekanligini ko`radi. Bu joy shunday bir vodiydirki, uni yuz tuman ming turli yo`llar kesib o`tadi, ammo ulardan biri ikkinchisiga sira o`xshamaydi. Butun va bo`lak orasidagi qarama-qarshilik ham shu yerdadir, taraqqiyot ham, tanazzul ham shu joydadir.

Tahlilni hikoyat bilan parallel tazrda olib boraylik, hikoyat quyidagicha boshlanadi: Naql qilishlaricha, bir guruh ko`rlar musofirlik yoki asirlik tufayli Hindistonga borib qolishadi. So`ngra falak gardishi bilan ular yana o`z yurtiga qaytib kelishadi. Bu yerda ulardan bir kishi: "Filni ko`rdinglarmi?" - deb so`raydi. Ular: " Ha", -deb javob berishadi. "Ko`rgan bo`lsangiz, dalil keltiring", - debdi boyagi kishi. Ularning har biri filning bir a'zosini paypaslab, undan bilim hosil qilib olgan edi. Shu sababli filning oyoqlarini ushlagaga kishi fil ustun (sutun)ga o`xshar ekan, desa, qornini paypaslagan, yo`q, u besutun, dedi. Xartumini ushlagan, fil ajdahoga o`xshash bir narsa ekan, desa, tishlarini bayon qiluvchi kishi esa, fil ikkita suyakdan iborat, dedi. Quyrug`idan xabar bergen kishi filni osilib turgan ilonga qiyos etadi. Qo`li bilan filning boshini paypaslagan kishi uni bir cho`qqining tumshug`i deb sharh qiladi. Filning qulog`iga

qo`l tegizgan kishi uni qimirlab turgan ikki yelpig`ich ekan, deydi.

Ular barchasi shu tariqa ko`r ekanliklari tufayli turli so`zlar aytadilar. Garchi ular aytgan so`zlarning barchasi to`g`ri bo`lsa-da, ularning hammasi nuqsonli edi va ularda tartib mavjud emas edi.

Shu o`rinda

hikoyatdan oldingi bobni, ya'ni ma'rifat vodiysining vasfisagi ayrib baytlarga murojaat qilsak:

"...Yuz tuman rahrav ko`rarsen beqaror,

Har biri bir yo`lni aylab ixtiyor.

O`z borur yo`lig`a har bir muftahir,

Yo`lni aylab o`z yo`lig`a munhasir.

Bu oni tutmay musallam, ul muni,

Har bir o`zdin o`zga ko`rmay ul buni". [42, 198-bet].

Ya'ni, "...unda sen yuz tuman yo`lovchini beqaror bir tarzda, har birini o`zga bir yo`ldan ketib borahotgan holda ko`rasan.Ularning har biri o`zi ketib borayotgan yo`l bilan faxrlanadi, har biri yo`lni o`z yo`li tomonga buradi.Biri xush tutgan yo`lni ikkinchisi xohlamaydi, har birining ko`ziga o`ziniki yaxshi ko`rinadi, boshqasini esa nazariga ilmaydi".

Ma'rifat vodiysining vasfi bobidan keltirilgan yuqoridagi baytlardan yaqqol ko`rinadiki, ko`rlar va fil haqidagi hikoyat shu o`rinda tamsil taqozosi o`laroq keltiriladi, misol keltirish ehtiyoji bilan dostoniga kiritiladi. Vodiy ta'rifidan so`ng ushbu hikoyatni o`qigan oddiy kitobxon ham hikoyat avvalgi bob( Ma'rifat vodiysining vasfi)ning mohiyatini yaqqol ochib berish uchun misol tariqasida berilayotganini anglaydi.

Ma'rifat vodiysidagi har biri o`z yo`lidan yuruvchi va har qaysisi o`z yo`lin maqbul hisoblaguvchilar tariqat ahlidirlar. Shunday ekan bunda ish ziddiyatl bo`lmay iloji yo`q, chunki yo`llarning o`zi bir biriga xilof.Suluk tartibida tafovutlar mavjud bo`lsa-da, hammasining maqsadi bittadir.Ya'ni ko`rlarning har biri o`zining ilmini (yo`lini) haq deb hisoblasa-da, bu ilmi nuqsonlidir.Amma hikoyat so`ngidagi asli hindistonlik bo`lgan donishmand filbon aytganidek, ularning bu xatolari kechirimli. Chunki ular o`z bilimlari darajasida xulosa qildilar va ular filni ko`rishmagan. Ularning aytganlarini bir yerga jamlasa, fil haqida muayyan bir tasavvur hosil bo`ladi.Aytimoqchiki, yo`llar o`zga, maqsad bittadir. Shu o`rinda, Payg`ambarimiz (s.a.v.)ning :" Kimki haqqa erishmoq uchun safarga otlansa va bu yo`lning son-sanoqsiz ko`p ekanligini ko`rmoqchi bo`lsa, uni xalq olayotgan

nafasga qiyos etsin", - degan so`zlarini yodga olmoq joizdir. Ko`rlar va fil haqidagi tamsil hikoyat aynan mana shu mazmunni olib berish uchun qo`llanilgan. Ushbu hikoyat mazmun jihatidan Rumiyning "Fihi mo fihiy" asarida keltirilgan "Uch sayyoh va uzum" to`g`risidagi hikoyatga o`xshaydi.

Navbatdagi vodiyligi Istig`no vodiysi bo`lib, ushbu vodiyligi bayonidan so`ng shaxmat o`yini to`g`risidagi tamsiliy hikoyat keltiriladi. Hikoyat so`ngidagi quyidagi baytlar ahamiyatga molik:

"...Bas bu **tamsile** sari nazzora qil,

Asli istig`noni yuz ming muncha bil.

Chun ma'ni sori bo`ldung rahshunos,

Barcha ishni **aylagil mundin qiyos**". [42, 206-bet].

Ya'ni, "Bas, sen bu **tamsilga** nazar sol, asl istig`noni bundan yuz ming marta ziyoda deb bil. Agar sen buning ma'nosi tomon yo`l topsang, barcha ishni **shunga qiyos qil**". Shoir ushbu hikoyat tamsil ekanini aytib, istig`no bundan yuz ming marotaba ortiq ekani va agar uning (istig`noning) ma'nosi sari yo`lga chiqilsa, barcha ishni shunga, ya'ni ushbu tamsil-hikoyatga qiyos qilish lozomligi aytilmoqda. Shu o`rinda tamsil-hikoyatlarning yana bir xususiyati oydinlashadi. Tamsiliy hikoyatlar qiyos qilish zarurati o`laroq yuzaga chiqadi. Demak, ushbu vodiylagi qiyos tariqasida keltirilgan tamsil-hikoyatni ko`rib chiqamiz.

Ikki ustod shaxmat o`ynashga kirishadilar. O`rtaga shaxmat donalari to`kishadi. Har tarafdan bir shoh taxtaga terildi. Rostakam shohlardek ularning ham xizmatkorlari, lashkarlari bor edi. Had birining bittadan to`g`ri yuruvchi vaziri va bittadan egri yuruvchi farzinlari ham bor edi. U ikki shohdan biri Rum ahliga shoh bo`lsa, ikkinchisi esa zang ahliga hukmdor edi.

Shundan so`ng raqiblar maydonga ot solib, turli o`yinlar ko`rsatishdi. O`rtada ajoyib, qiziq o`yinlar namoyon bo`lmoqda, balki behad hiyla va tadbirlar ko`rsatilmoqda edi.

Har bir qo`mondonning o`g`li jangning oldingi saflarida borar, otasidan oldin urushga kirar edi. Urush maydoni bosib o`tilgach otasining o`rnini bosar edi.

Shunchalik shiddatli jang, maydon, o`zaro dushmanlik qilish va urush olib borishlar - hamma-hammasi agar o`yinchi donalarni yig`ishtirishga ahd qilsa va shaxmat taxtasining bir chetini ko`tarsa, bularning barchasi o`rtadan ko`tarilib, yo`qqa chiqadi! Shunda na bu urush va na bu dushmanlikdan, na jang olib borish tartib-qoidalaridan asar qoladi.

O`ynaguvchi ustod uchun o`yin tugagach, ular (donachalar) hech qanday tafovutga ega bo`lmaydilar. Shaxmat

donalari xalta ichiga solingach "shoh" quyi tushishi, "piyoda" esa yuqori ko`tarilishi mumkin. Hikoyatning mazmuni barchaga tushunarli, endi uni shoir aytganidek Istig`no vodiysining bayoni bilan qiyoslaymiz. Vodiy bayoni quyidagi bayt bilan boshlanadi:

"Vodiy ondin so`ngra Istig`nodurur,

Onda teng a'lovu gar adnodurur". [42, 202-bet].

Ma'nosi: "Undan (Ma'rifat vodiysidan) keyingi vodiy Istig`nodir. U yerda a'lo va past tabaqali kishilarning hammasi tengdir". Hikoyat-tamsil bilan qiyoslaganda bu holat shaxmat o`ynaguvchi ustodning shaxmat taxtasini ko`targandagi va donalarni xaltaga solgandagi holatini yodga soladi.

Porso Shamsiyev va Sobir Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan " Navoiy asarlari lug`ati"da "istig`no" so`zining ham izohi mavjud. "Istig`no" so`zining lug`aviy ma'nosi "boshqalarga muhtoj emaslik, muhtoj bo`lmaslik, ehtiyojsizlik":

Chu ishq bodiyasi keldi dashti **istig`no**,

Shah o`ldi zor anga gar gado erur munis. ("Badoye ul-vasat")

Tasavvuf ta'limotida bu so`z bag`ishloving to`rtinchi vodiysini (tabaqasini) ifodalaydi, ya'ni ruhning shunday yo`l tutishidurki, unda Allohning ishqini va mushohadasi boshqa hamma sezgilarni o`ziga oladi. Ushbu lug`atda "istig`no"ning lug`aviy ma'nosidan so`ng keltirilgan baytdagi mazmun, ya'ni "Ishq badaviysi istig`no dashtiga kelganda, agar gado unga hamdam, ulfat bo`lgan bo`lsa, shoh unga (istig`noga erishgan ishq badaviysiga) zor bo`ldi"gan holati Istig`no vodiysi bayonidagi mazmun bilan bir xil deb atash mumkin. Masalan:

"...Mo`rlarg`a to`ma onda barcha sher,

Pashshasi pil ovlamoqqa bas daler.

Yetti kishvar ichra shohi qahramon,

Bir gado onda hamon-u ul hamon.

Tig`i qotil tortibon yuz ming cherik,

Ko`zga kelmay onda qoqimcha irik.

Ajdahokim ko`kni chekkay dam bila,

Onda yakson rishtayi Maryam bila.

Bo`ldi ming xayli maloyik bartaraf,

Nogah Odam kiydi bir toji sharaf.

Bo`ldi yuz ming jismdin begona ruh,

Toki kishtibonlig` oyin qildi Nuh...". [42, 202-bet].

Mazmuni:"...U yerdagи chumolilar sher bilan ovqatlanadi, pashshasi esa filni ov qilishga qodir. U yerda yetti iqlimni zabit etgan qahramon shoh ham oddiy bir gadoga tengdir. Qotillik tig`i h yerdagи o`zining yuz ming qo`shini bilan saf tortib turadi. Qoqum terisidan tikilgan qimmatbaho kiyimlar y yerda nazar-pisand qilinmaydi.Ko`kni yutib yuborishga qodir ajdaho u yerda Bibi Maryamning nozik ipi bilan bab-baravar turadi.U yerda minglab malayikalar to`dasi e'tibordan qolib nogah Odam sharaf tojini kiydi. Yuz ming jism o`z ruhidan begona bo`lganida, Nuh kemachilik bilan odamlar hayotini ofatdan saqlab qoldi..."

Yuqorida ko`rib turganimiz Istig`no vodiysining bayonidan chiqariladiga qisqa va lo`nda xulosa shundan iboratki, istig`noga yetgan inson, ehtiyojsizlikka erishgan inson uchun hech bir dunyo matohining ahamiyati yo`q, u insonning dunyi ahli uchun qanday maqomda turishining, xoh gado bo`lsin, xoh shoh, qizig`i yo`q. Chunki u Allohnинг muhabbatи va mushohadasidan boshqa barcha narsadan voz kechgan. Shoir tamsiliy hikoyat orqali aymoqchi bo`lgan fikr esa shundan iboratki, bu dunyoda kim bo`lishing ahamiyatsiz, balki oq donasan, balki qora, shoh, to`ra yoki piyodadirsan, kim bo`lsang ham bid yerga ketasan. Sening taqdiring shaxmat donalarining vaziyati kabidir.Shaxmat donalarini O`yinchи istagan ahvolga solgani kabi taqdirlarni bitguvchi Zot ham sening hayotingni istagan tomonga bura oladi.Va shuni unutmaslik kerakki, barcha shaxmat donalari oqibatda xaltachada bir xil mavqeda turgani yanglig` Odam avlodlari ham u dunyoda shoh yoki gado bo`lmaydilar, u dunyoda bularning bari ahamiyatsiz bo`ladi. Sahih hadislarda keltirilishicha, Payg`ambarimiz (s.a.v): "O`lmasdan oldin o`lingiz",- degan ekanlar. Istig`no aynan shu holat, o`lasdan oldin o`lish holatidir.

Ushbu BMIning  
avvalgi qismlaridan ma'lumki, biz tamsil-hikoyatni tahlil qilishimiz uchun avval tamsiliy hikoyatga keltirilishiga sabab bo`lgan bob, ya'ni vodiylar sifat bayoni, undan so`ng esa har bir vodiy talqinidan so`ng keltirilgan tamsil-hikoyat zarur. Ummuman, tamsil san'ati uchun ikki unsur: dalillanayotgan narsa-hodisa va dallil uchun keltirilgan misol muhim.

"Tavhid vodiysining ta'rifi" bobি boshqa vodiylar talqinidan ko`ra kichik hajmlidir, bob to`qqiz baytdan iborat, ammo vodiy uchun tamsil qilingan hikoyat hajmi u qadar kichik emas, o`ttiz bir bayt.Vodiydan ta'rifidan so`ng Mansur Xalloj haqidagi hikoyat tamsil qilingan. Dastlab to`qqiz baytli vodiy ta'rifini ko`rsak:

"- Vodiyi Tavhid ondin so`ngra bil,

Fard olub tajrid ondin so`ngra bil.  
Chun bu vodiy sori sayring qo`ydi gom,  
Fard-u yaktolig` sanga bo`ldi maqom.  
Chun bu vodiyg`a nihoyat topdi sayr,  
Munda bir bil yuz tuman ming bo`lsa tayr.  
Borchag`a kom-u havo tajrid o`lur,  
Borchag`a lahn-u navo tafrid o`lur.  
Bu ravishlarg`a chu yetti ul kashish,  
Borcha birlikda gum bo`lmoqdur ish.  
Birda birdin hosil o`ldi bir adad,  
Yo`q xiradqa munda dam urmoqqa had.  
Chun sening olingga tushti bo`yla pech,  
Bilki ermish birdin o`zga barcha hech.  
Bir bo`l-u, bir ko`r-u, bir de, bir tila,  
Mayl qilma munda ikkilik bila.  
Ikkilik bu yo`lda ahvalliqdurur,  
Sirri vahdatdin mo`attalliqdurur". [42, 207-bet].

Mazmuni:"Istig`nodan keyingi vodiyni Tavhid (Yagonalik) vodiysi deb bilgil.  
Unda fard bo`lib, ortiqcha narsalardan xoli bo`lish lozimligini ham anglagil.

Bu vodiyda sayr qilmoqchi bo`lsang, unda yakka-yu yolg`izlik sen  
uchun asosiy qoida bo`ladi.Bu vodiydagи sayring nihoyasiga yetgach, u paytda yuz  
tuman mingta qushni bitta qush deb bilasan. Bunda ularning barcahsining maqsadi  
yakkalik, barchasining kuy va navosi yolg`izlik bo`ladi. Tarkidunyo qiluvchilar  
shu holatga erishsa, ular uchun birlikda yo`qolish asosiy ish bo`lib qoladi.Chunki  
bir karra bir bir bo`ladi, aqlning bu ishga haddi sig`maydi.

Bu qiyin ish sening qarshingda ko`ndalang bo`lsa, bilki, birdan o`zga barcha  
narsa hechdir. Bir bo`l-u, bir ko`r-u, bir de, bir tila! Bunda hech qachon ikkilikka  
mayl qilma.Chunki ikkilik bu yo`lda ortiqchalik qiladi va birlik sirlarini bilishdan  
chetga chiqishni anglatadi".Tasavvuf ta'limotida tavhid - haqiqatga erishish, kishi

ruhining iloh, ilohiy ruh bilan qo`shilib ketishi, Allohga yetishuvi; so`fiylikning beshinchi davri hisoblanadi.Tasavvuf adabiyotida tazhid, vahdat deganda birinchi o`rinda xayolimizga Mansur Xalloj keladi.Hazrat Navoiy ham Tazhid vodiysining ta'rifidan so`ng Mansur Xalloj haqidagi tamsil-hikoyatni keltiradilar. Hikoyatda tazhidda yuqori darajaga erishgan va doim "anal-haq" deb takrorlaguvchi Mansurga din arboblari uning bu ishi yaqinlar ahlining ishi emasligini aytishadi. Ko`pgina suluk ahliga ham bu holat kashf bo`lsa-da, ular odob saqlab, mo`tadillikni ta'minlaganlar.Shu zaylda Mansurga ko`p bora nasihat qiladilar.Ammo Mansur bu nag`malarni takrorlashdan aslo o`zini tiya olmaydi, chunki u ichgan qadah nihoyatda mast qiluvchi edi.

Kunlarning birida uning xayoli Rasuli Akramga borib yetadi. Uning yodiga Muhammad (s.a.v.)ning Buroq nomli otga minib osmonni sayr etgani va unga me'rojga ko`tarilish yuksak baxt nasib etgani keladi. Tangri taolo undan:"Ey do`s, istagan maqsading nedur?"- deb so`raganida Nabiy (s.a.v) osiy ummatlarining gunohlarini afv etishini so`raydi. Shunda Mansurning ko`nglida bir savol paydo bo`ldi:

"Ne uchun ul ma'dani sidq-u safo,

Qildi erkin muncha birla iktifo?"

Me'rojga ko`tarilgan zotdan olamlar Yaratuvchisi tilagi ne ekanini so`raganda Muhammad (s.a.v.) ummatlari gunohlarining afvini so`rash bilangina kifoyalandi.Nega unga shuning o`zi kifoya qildi ekan, degan savol Mansurni tinch qo`ymas edi.Bir kuni uning tushiga Rasulilloh kirdi.Unga "telbalik ayvonida o`tiruvchi, vahdat lofi bilan "anal-haq" deyuvchi", dev murojaat qilib, me'roj kechasida o`zlarida hech qanday "menlik" xayoli bo`lmaganini aytadilar." Sen bu borada o`zingning ko`rliging va nodonligingni oshkor etding. U yerda "menlik" va "senlik"ni xayol qilgan kishi ikkilik naqshida aql yurgizgandir. Go`yo g`ilaylikdirki, bir narsani ikkita qilib ko`rishdan o`zga narsa emas",- deydilar. Tamsiliy hikoyat shu yerda tugaydi. Hikoyatda tasavvufdagi sakr va sahv holatlariga shoirning munosabati yaqqol aks etib turibdi. Mansur Xalloj mastlik va oshkoraliq holatini shoir yoqlamaydi. Buni biz hikoyatdagi ruhoniylarning nasihatini va Payg`ambarimiz (s.a.v)ning so`zlaridan anglab olishimiz mumkin. Hikoyatda me'roj kechasida Yaratgandan faqatgina bir narsa, ummatlarining qilgan gunohlari uchun afv so`ragan Allohning habibi haqida so`z ketar ekan, Mansurni shu holat chuqur o`yga toldiradi.Nega endi faqatgina sgu bilan kifoyalandi?Adabiyotdagi, ayniqsa, mumtoz adabiyotimizdagi ideal obraz Muhammad Payg`ambarimizdir.Alloh bilan vahdatga erishgan zot, shubhasiz, udir. Tazhidiga yetish uchun , Navoiy ta'biricha, Talab, Ishq, Ma'rifat va Istig`noga erishish lozim.

Haqiqiy ma'noda bu vodiylarni "bosib o'tgan" shaxs, komillik timsoli - Muhammad Mustafo (s.a.v). Ul zot me'roj tunida faqat ummatlar uchun tilak bildirdi, o'zлari uchun emas. Chunki u istig`no holatiga yetgan va ayni damda vahdatga erishgan. Shunday bo`lsa-da, odob saqlaganlar, mo`tadillikni ta'minlaganlar, sakr holatiga yo`l qo`ymaganlar.

Hikoyatda, vodiyning xusisiyatini xususiyatini inobatga olish natijasi o`laroq, "birlik" va "ikkilik" tushunchalari bir-biriga qarshilantirilganini hisobga olsa, Navoiy Mansur Xalloj yo`lini yoqlamaganini tushunish mumkin. Vahdatga yetganlar buni oshkor qilmadilar, deb hisoblaydi shoир, chunki ularda bunga ehtiyoj bo`lmaydi. Chunonchi, hikoyatda Payg`ambarimiz (s.a.v.) tillaridan aytilgan quyidagi baytlarga ahamiyat beraylik:

"...Onda menlikning xayoli yo`q edi,  
Balki bu lafz ehtimoli yo`q edi.  
Eltgan ul erdi, boshlag`on ham ul,  
Istag`on ham ul, bag`ishlag`on ham ul.  
Sen ajab ko`tahnazarliq aylading,  
Bo`yla yerda bebasarliq aylading.  
Kim oningdek vodiyi Tavhid aro,  
Gulshani tajrid ila tafrid aro,  
Haml qilding menlik-u senlikka yo`l,  
Bu ikkilik vasfidin pok erdi ul...". [42,208-209-betlar].

Ya'ni, "O`shanda (me'roj paytida) menda hech qanday "menlik" xayoli yo`q edi, balki bu so`zni aytishning hech bie ehtimoli mavjud emas edi. Chunki u dargohga eltgan ham, yo`l boshlagan ham, istagan ham, bag`ishlagan ham faqat uning o`zi edi. Sen esa ko`rlik va nodonligingni ko`rsatding. Tavhid vodiyasi yoki yakkalik va yolg`izlik gulshanida "menlik" va "senlik" tomon yo`l ochding, ammo u bu xil ikkilik vasfidan pok turardi".

Navoiy hazratlari vodiy ta'rifida to`laligicha ochib berlimagan fikrlarni, o`zining xulosalarini vodiy tasviridan so`ng keltirilgan tamsil-hikiyatda to`liq chiqarib bera olganlar. Bu holatdan alloma shoир hikoyatsiz o`z fikrlarini to`laligicha ochib bera olmas ekan degan xulosaga kelib bo`lmaydi. Tamsil-hikoyatlarni qo`llashdan maqsad o`quvchi hissiyotiga kuchliroq ta'sir qilish va aql bovar qilishi mushkulroq bo`lgan tushunchalarni (masalan tasavvufiy istilohlarni) hikoyatlar orqali dalillashdir.

## **II.3. Hayrat va Faqr-u fano vodiylarini tasvirlashda tamsiliy hikoyatning ahamiyati**

Qushlarning navbatdagi manzili - Hayrat vodiysi. Hayrat vodiysidan so`ng keltirilgan tamsil-hikoyat dastlab visol umidida, so`ngra visoldan keyingi hijrondan hayratda qolgan oshiq haqida. Hikoyat boshqa tamsiliy hikoyatlardan hajman yirik, u bir yuz qirq besh bayt (ikki yuz to`qson misra)ni o`z ichiga oladi. Hayrat vodiysining bayoniga bag`ishlanga bob unchalik yirik hajmda bo`limgani holda unga tamsil qilingan hikoyat yirik hajmlidir.

Navoiy Hayrat vodiysini quyidagicha ta'riflaydi:

"...Har nafas yetmas kishi boshiga tig` ,  
Bosh urar ming oh ila yuz ming darig` .  
Hayrat aylar tilni gung-u lol ham,  
Aql zoyil, hushni pomol ham...  
...Munda chun qo`ydi qadam ahli ravish,  
Onga hayronlig` din o`zga bo`lmas ish.  
Har ne kasb aylab edi tawhid aro,  
Vodiyi tafrid ila tajrid aro.  
Barchasi ondin bo`lur mahv-u adam,  
Yo`qki hosil qilg`olikim, o`zi ham...  
...Boqsa har yon hayratdin afzun topar,  
O`zni hayrat ichra digargun topar.  
Derki, oshiq erkonomni tonglamon,  
Kimga erkanni-yu lekin onglamon...". [42, 209-210-betlar].

Mazmuni: "...Bu vodiyda hali kishi boshiga tig` yetmasdan turib, ming oh va yuz ming afsus chekish yuzlanadi. Hayrat tilni gung-u lol qilib qo`yadi, aqlni o`tmas qilib, hushdan ayiradi... Yo`l ahli bu vodiyga qadam qo`ygach unda hayronlikdan o`zga ish bo`lmaydi. Agar tawhid borasida nimaga erishgan, yakka-yolg`zilik va ajralish vodiysida nimaniki qo`lga kiritgan bo`lsa, bu yerda ularning barchasi yo`qolib ketadi, hatto o`zining borligini ham yodidan soqit qiladi... Shu tariqa har yoqqqa boqsa, cheksiz hayratga tushadi, o`zini hayrat ichida g`arq bo`lgan

holda ko`radi. Oshiq ekanimdan tonmayman, ammo kimga oshiq ekanimni o`zim anglamayman, deydi...".Hikoyat jahonni zabit etgan bir podshohning nihoyatda go`zal bo`lgan qizining tasviri bilan boshlanadi.Hech bir oshiqni o`ziga teng ko`rmagan, ularni nazariga ilmagan qiz bir kecha tush ko`radi. Tushiga kirgan go`zal yigitga oshiq bo`lib qolgan qiz yana qayta shu tushini ko`rishni istardi, ammo ko`z yoshlari ko`zlaridan uyquni oqizib ketgan edi. Kunlardan bir kun hajr o`tida yonib yurgan qiz shoh bazmida tushida ko`rgan yigitni uchratadi va oh urib hushdan ketadi. U yigit shoh xizmatkorlari ichidagi yosh bir navqiron yigit edi. Yigit ham xuddi shu paytda qizni ko`rdi va shu zahotiyoy qo`nglida ishq alanga oldi. Endi hijron qiznigina emas, yigitni ham azoblamoqda edi.

Shoh qizining g`oyatda tadbirli, zehnli ikki kanizi bor edi.Qiz ularga dardini aytadi. Yo o`ldirib bu azobdan qutqarishlarini, yoki biron boshqa chora topishlarini so`raydi. Kanizaklari buni, albatta, yaxshi yo`l bilan hech kimga oshkor qilmay hal qilishga va'da berishadi.Ular yigit bilan do`splashib, uni sharob bilan mast qilib, uni uxlatib qo`yish uchun rudni chalishgan zahoti yigit uxbab qoladi.Yigitni kajavaga solib shoh qizi yoniga keltiradilar.Yuziga gulob sepilgach uyg`ongan yigit qarshisida turgan seviklisini ko`rib hayratga tushadi. Qiz va yigit tun bo`yi visol sharobidan mast bo`ldilar. Tong yaqinlashgach sir oshkor bo`lmasligi uchun kanizaklar rud yordamida yigitni behush qilib yana olib kelgan joylariga eltib qo`ydilar.

Yigit uyqudan ko`zlarini ochganda bu yorug` olam uning uchun go`yo qorong`u bo`lib ketdi. Vasl bazmini yod etib jinnilardek nola qilar edi.

Holini birovga ma'lum qilishini ham, qilmasligini ham bilams edi. Dardini aytgan bilan ado qila olmas, agar maxfiy tutmoqni istasa, uni jon tark etishi mumkin edi. Uning bu hayratlanishi har lahza joniga ozor berar edi. Har kishi uning ahvolini so`rasa, u dardini so`ramasliklarini iltimos qilar edi.Kuygani yetarli, battar kuyishni istamas edi.Chunki uning holatini sharh etib bo`lmaydi, bunga erishmagan kishi uni his eta olmaydi.

Oshiq:"O`sha iqbol bilan vaslga erishgan o`zim edimmi?"- deb o`ziga savol berar edi.

Hikoyat quyidagi misralar bilan yakunlanadi:

"Vahdati vasl ichra ul yanglig` murod,

Ul sifat ma'shuq birla ittihod.

So`ngrat hijrondin bu yanglig` shiddatim,

Hayrat uzra, hayrat uzra hayratim.

Holatedur ars-u bepoyon ajib,

Kimsaga qilma muni, yo Rab, nasib". [42, 220-bet].

Hikoyatda yakuni oshiqning hayrat ichida qolishi bilan yakunlanadi. Hayratda qolgan oshiqning bu so`zlari Hayrat vodiysi bayonida keltirilgan quyidagi bayt bilan mazmunan bir xil:

"...Derki, oshiq erkonomi tonglamon,

Kimga erkanni-yu lekin onglamon...". [42, 210-bet].

Ya'ni, ishq dardiga mubtalo bo`lib hayratda qolgan odam o`zining oshiq ekanidan hayron qolmaydi, lekin kimga oshiq bo`lganini anglamaydi, shu narasa uni hayratda qoldiradi, gung-u lol qilib qo`yadi. Vodiy ta'rifi va undan so`ng keltirilgan hikoyatdagi bunday uyg`unlik hikoyatning tamsiliy hikoyat ekanligini tasdiqlab turadi.

Tasavvuf ta'llimotiga ko`ra, kimda-kim abadiylikka erishmoqchi bo`lsa, o`zini foniq qilishi, yo`q bo`lishi, o`lishi lozim.Buni o`zlikni yo`qotib, butun borliqdan kechib ilohiyatga singishi deb tushunish kerak.Fano ahli Zoti mutlaq vasliga erishganlar hisoblanadi. Dostonda muallif "Fano tariqi adosida munojot" bobida shunday deydi:

"...O`yla Foniq qismi, yo Rab, ber fano,

Kim baqo kunjidin ul topqay g`ino.

Qil o`zungni budini avval nabud,

Ul nabudi ichra bergil bir vujud.

Kim anga ish ul vujud ichra tamom,

Bo`lg`oy-u topqoy visoling, vassalom". [42, 257-bet].

Yuqoridagi uch baytda Navoiy tangriga munojot qilib, o`ziga yo`qlikni nasib etishini so`ramoqda.Shunday yo`qlikki, u abadiyat xazinasidan o`ziga tegishli boylik topa olsin.Avval uning borlig`ini o`zida yo`qotib, so`ngra bu yo`qlik ichra borliq yaratishini so`ramoqda. Zero, bu borliqda uning ishi tamom bo`lib, Uning visolini topajak, vassalom!

Hazrat Navoiy fano tushunchasiga ko`pgina asarlarida to`xtalib, umi g`oyatda go`zal tasvirlay olganlar. Masalan, shoir qalamiga mansub quyidagi qit'aga e'tibor beraylik:

" Fano sharbati bobidakim, ta'mi zahri qotildur-u baqoyi abad no`shi ul zahrdin  
hosil

Foniyi mutlaq o`lmayin solik,

Anga yo`qtur umidi maqsadi kull.

Qaro tufroqqa singmagan qatra,

Andin imkoni yo`q ochilmoq gul" [44, 703].

Avvalo, qit'aning nomiga e'tibor bersak, fano sharbati tami zahri qotil, ammo abadiy borliq uni ichishdan hosil bo`ladi, deyilmoqda. Qit'ada detallashrilgan tamsildan mahorat bilan foydalanilgan. Aytilmoqdaki, solik mutlaq foniylar bo`lmay tirib ulug` maqsad umidini qilib bo`lmaydi. Agarki qatra, tomchi tuproqqa singmasa, u yerdan gul ochilishining imkoni yo`q. Demak, yuqoridagi munojot va qit'aning mazmunidan kelib chiqib fanoni butun borliqdan kechib, ilohiyatga singish va unda qayta yaralish, deb tushunish mungkin. "Lison ut-tayr" dostonida qushlar bosib o'tishi lozim bo`lgan navbatdagi, ayni paytda so`nggi vodiy Faqr-u fano vodiysi hisoblanadi. "Fano" so`zining ma'nosini tushundik, "faqr" nima ma'noni anglaradi, degan savol paydo bo`ladi. "Faqr" so`zi arabchadan olingan bo`lib, "kambag` allik, yo`sillik" yoki "dunyodan kechish" demakdir. So`fiylar orasida faqrlikda hayot kechirish ko`pincha zaruriy holatlardan bo`lgan. Ma'lumotlafga qaraganda Muhammad (s.a.v.)ga ilk bor vahiy kelganida faqr ko`rinishidagi nur ko`z oldilarida gavdalangan ekan. Vodiyning "Faqr-u fano" deb nomlanishiga sabab ham, dastlab dunyodan kechib, yo`qsillikda kun kechirib, so`ngra o`zlikdan ham kechish, fano bo`lish bo`lsa, ajab emas.

Vodiy ta'rifidan so`ng Shayx Abul Abbas haqidagi hikoyat tamsil qilinadi. O`z zamonasining zabardast peahvolaridan bo`lgan Shayx fano vodiysiga qadam qo`ygan edi.

Navoiy shu o`rinda fanoga yuz tutgan insonning qanday xususiyat-u fazilatga ega bo`lishi kerak ekanini Shayx bilan bog`liq bo`lgan bir voqeа orqali bayon etadi. Shayx bir kuni suhbatdoshlari bilan xonaqohda o`tirar ekan, shu mahalladagi bir g`alati telba beadablik bilan xonaqoh sahniga kirib keladi. Tahorati uchun suv keltirishlarini aytadi. Shayx unga obdasta eltib berishlarini aytadi. Devona esa obdastani sindirib yuboradi. Yana idish olib kelishlarini so`raydi. Obdasta keltirishsa, yana boyagi holat takrorlanadi. Shayxga bu holni ma'lum qilshganda, shayx nechta idish so`rasa ham olib borib berishlarini aytadi. Devonaga olib kelingan barcha idishlarni sindirib tashlaydi, xonaqohda idish qolmaydi. Shunda devona: "Agar idish bo`lmasa, shayx menga o`z soqolini keltirsin. Soqoli bilan poklanaman", - deydi. Shayx bu adabsiz so`zlarni eshitgach mammuniyat bilan necha yillardan beri o`stirgan soqoli bir ishga yarab qolganidan quvonga ko`yi devonaning yoniga soqolini tutamlab keladi.

Shayxning bu xil fano xislatini  
ko`rgach g`ofil, hayosiz va idroki yo`q telba ortiq gapira olmay qoladi. O`zini  
Shayx oyog`i ostiga otib, hushdan ketadi. Foniylikka erishgan solik  
telbagaga nazar tashlab undagi o`zlikdan asar ham qoldirmaydi. Gumrohni shu tarzda  
kamolga yetkazib, misni oltinga aylantirdi. Har bir kishi rang, naqsh va bo`yoqdan  
- o`zligidan chiqmay turib, bunday ishni qilishi mumkin emas.

Hikoyat so`ngida muallifning o`z-  
o`ziga murojaat tarzidagi bayti bor:

"...Foniyo, mundoq fano haqdin tila,

To baqo topqaysen ul ifno bila". [42, 224-bet].

Asarda Foniy taxallusini qo`llagan shoir o`ziga Haqdan hikoyatdagi shayxniki  
kabi yo`qlik tilamoqda va bu xil yo`q bo`lish bilan abadiy borliq qo`lga kiritilishini  
uqtirmoqda.

Yuqorida biz vodiylar talqinida tamsiliy-hikoyatlarning qo`llanishini  
kuzatdik. Dostonda biz keltirgan yettita hikoyatdan tashqari ham tamsil-hikoyatlar  
mavjud. Ba'zi o`rinlarda ularni shoirning o`zi ham "Tamsil" deb sarlavha  
qo`ygan. Yuqorida keltirilgan vodiylar talqiniga bag`ishlangan tamsiliy  
hikoyatlarga garchi shoir "Hikoyat" deb nom bergan bo`lsa-da, ular ular tamsiliy  
xarakterda ekanini bir necha sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, tamsil  
san'atining g`azalda (va shunga o`xshash janrlarda) qo`llanilish qoidasiga ko`ra,  
birinchi misrada (ba'zan baytda) aytilgan fikrga ikkinchi misrada (yoki baytda)  
hayotiy misol keltiriladi, bu keltirilgan misolning vazifasi avvalgi fikrni  
dalillashdan iborat bo`ladi. Shundan kelib chiqib fikr yuritish mumkinki, liri-epik  
janrda bu holat boshqacha tarzda amalga oshadi. Dostonlarda syujetli tamsillar  
keltiriladi va ular yakka holda kelganda mustaqil bir asar bo`la oladi. Ikkinchidan,  
"tamsil" so`zining ma'nosi "misol keltirmoq" ekan. Dostonda, xususan, biz ko`rib  
o`tgan "Lison ut-tayr" dostonida shoir "Tamsil" deb nomlagan hikoyat tipidagi  
boblarni tamsil san'ati deb qaraymizmi, yoki shoir shunchaki so`zning lug`aviy  
ma'nosinigina nazarda tutib bobni shunday atadimi, degan savol paydo bo`ladi. Biz  
shu kungacha hech ikkilanmay "tamsil" deb qaraydigan, faqatgina baytlar  
orasidagi detallashtirilgan dalillash usuli bu tamsil san'atining bizga ma'lum  
bo`lgan bir qirrasi xolos. Aslida tamsil asarda hissiy bo`yoqdorlikdan tashqari  
voqealar tizimining mukammallashuvida, rivojida ham xizmat qiladi. Bu  
funksiyani esa tamsil biz BMIning II bobida ko`rib o`tgan syujetli ko`rinishda  
amalga oshiradi va shu sababdan biz uni "tamsiliy hikoyat", "tamsil-hikoyat",  
"tamsil qilingan hikoyat", shuningdek, "syujetli tamsil" deb atadik. Uchinchidan,  
shoir "Hikoyat" deb sarlavha qo`ygan boblarda ham bu hikoyatning tamsil ekaniga

ayrim o`rinlarda ishora berib ketgan. Masalan, Istig`no vodiysining bayonidan so`ng keltirilgan shatranj (shaxmat) to`g`risidagi hikiyatdagi quyidagi baytlarga e'tibor qaratish joizdir:

"...Bas bu **tamsile** sari nazzora qil,

Asli istig`noni yuz ming muncha bil.

Chun bu ma'ni sori bo`ldung raxshunos,

Barcha ishni **aylagil mundin qiyos**". [42, 206-bet].

Navoiy, keltirilgan hikoyatni "tamsil" deb atab qolmay, istig`noni keltirilgan tamsil bilan qiyoslamoqda. To`rtinchidan, Atoulloh Husayniy o`zining badiiy san'atlarga bag`ishlangan asarida bir qator san'atlar qatori tamsilni ham arablar badiiy san'at deb hisoblamasliklarini, ular fors va turkiylar tomonidan san'at deb topilganini aytadi. Demak, qachonlardir tamsil badiiy san'at hisoblanmagan, to forslar va turkiylar uni badiiy san'atlar qatoriga kiritishmaguncha tamsil ham so`zlarning ma'no tarafiga aloqador jihat sifatidagina o`rganilgan. Arablar san'at deb topmagan, ammo biz uchun san'at hisoblangan o`ndan ortiq badiiy vositalar asarda sanab o`tilgan. Shunday ekan, biz ham vodiylar tasviridan so`ng keltirilgan hikoyatlar tipidagi voqeliklarni tamsiliy-hikoyat deb atay olamiz va bunga haqlimiz.

## Xulosa

Alisher Navoiy ijodi janriy rang-barangligi hamda mfzmuniy-g'oyaviy yuksakligi bilangina emas, balki ilg'or fikr-g'oyalarning o'ziga xos ifodasi bilan ham o'zbek she'riyati tarixida yuksak mavqega va shuhratga ega ekanligi hech kimga sir emas.

Navoiy lirik janrlar doirasini kengaytirish va poetik jihatdan rivojlantirish, ularning ijtimoiy mohiyatini oshirish borasidagi tashabbuslari yuksak g'oyalarning mukammal badiiy shaklda ifodalanishi uchun imkon beradigan poetik vositalar topib, ijod jarayoniga keng joriy etish yuzasidan olib borgan jiddiy ishlari bilan bevosita qo'shilib ketgan. Binobarin, Navoiy asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmati, shoir san'atkorligining o'ziga xos qirralari uning poetik tasvir vositalari doirasi, shuningdek, ularni qo'llash usullarida yanada aniq namoyon bo'ladi.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda shoirning "Lison ut-tayr" dostonining yuksak badiiyatini ta'min etgan vositalardan biri bo'lmish tamsil san'ati qo'llangan o'rirlarni tahlilga tortdik va quyidagi xulosalarga keldik:

- "Lison ut-tayr" dostonida qo'llanilgan tamsillarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratsa bo'ladi: detallashtirilgan tamsil va tamsiliy hikoyat. Dostonda tamsilning har ikkala turidan ham yuksak badiiy mahorat bilan foydalanilgan. Ayni paytda tamsilning bu ikki turini dostonda qo'llanilgan

tamsil namunalaridan kelib chiqib o'z ichida kichik guruhlarga ajratsa bo'ladi;

- dostonda o'ttizdan ortiq o'rinda detallashtirilgan tamsildan mohironafoydalanilgan. Detallashtirilgan tamsilni biz hajmiga ko'ra turli guruhlarga bo'lishimiz mumkin. Bir misradan iborat tamsil, bir baytdan iborat bo'lgan tamsil, ikki va undan ortiq baytdan iborat bo'lgan tamsil (bu o'rinda tamsiliy hikoyat kiritilmaydi) kabi turlarga bo'ldik;
- detallashtirilgan tamsilning bajarayotgan vazifasiga ko'ra turlari: hikoyat va masallarni xulosalash uchun xizmat qilgan tamsillar, qahramonlar xarakterini dalillash uchun xizmat qiluvchi tamsillar, shoirning aytmoqchi bo'lgan fikrini konkretlashtirish uchun xizmat qilgan tamsillar va hkz. turlari mavjudligini ko'rib chiqdik;
- Alisher Navoiy ijodida ("Lison ut-tayr" misolida) uchraydigan detallashtirilgan tamsillarning ayrimlari muallif uslubigagina xos noan'anaviy tarzda uchraydigan o'rirlari mavjud. Masalan, tamsilning ta'zod xarakterida qo'llanganlik holati (Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatda ketirilgan tamsil nazarda tutilmoqda). Bu o'rinda tamsil bo'lib kelgan baytning ikki qismdan iboratligini ko'rish mumkin, chunki tazodda ikki qarama-qarshi ma'noli qism bo'lishi shart. Nafaqat tazod bilan, balki boshqa bir necha san'atlar bilan ustma-ust, qorishiq holatda qo'llanilgan tamsillarni uchratish mumkin;
- ma'lumki, mumtoz she'riyatda shoirlar badiiy san'atlardan foydalanan ekan, ba'zida badiiy san'atning ma'lum bir turini silsila tarzda qo'llaydi. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida ko'pgina she'riy san'atlar (tazod, tajahuli orif, mubolag'a va hk) qatori tamsil ham silsila, zajir tarzida bitilgan o'rirlarni aniqlab tahlilga tordik. Tamsiliy silsiladan, ayniqsa, Ishq vodiysi talqiniga bag'ishlangan bobda g'oyatda pyxtalik bilan foydalanganligi sababli kuzatildi;

- muqaddimaviy boblardan munojot, xalifalar ta'rifi va Shayx Farididdin Attorga atalgan boblarda fikr tasdig iga xizmat qiluvchi tamsillardan foydalanilgan.Ayni holat dostonning barchaboblari uchun ijodkoradabiy niyatinochib berishda tamsilmuhimahamiyatkasb etganinidalillaydi;
- qushlarning uzrxohligiga aytilgan javoblar bilan bog'liq hikoyat va masallarda detallashtirilgan tamsillardan namunalarni talhlil qilib chiqdik. Bunda tamsil, asosan, hikoyatlarning yakunida qo'llanilib, hikoyatga xulosa berish vazifasini bajarish barobarida qushlarning uzxohlik uchun aytilgan nutqlariga ham, ularga Hudhud tomonidan berilgan javobiga va keltirilgan hikoyatga ham taalluqli ekani bilan ahamiyatlidir;
- dostonda tamsiliy hikoyatning o'rni va vazifalarini o'rgandik. Tamsiliy hikoyatlarning asosiy vazifasi hissiy ta'sirdorlikni oshirish va fikrni yuksak badiiy ruhda ifodalashdan tashqari dostonda voqealar tizimining mukammallahuviga xizmat qilishi, shuningdek,vodiylarda mujassamlashtirilgan irfoniy ma'noning terananglashishiga bois bo`lishi kuzatiladi;
- umuman olganda, "Lison ut-tayr" dostoniga qo'llanilgan tamsil san'ati (detallashtirilgan tamsil) namunalarining har biri asarning badiiy jihatdan go'zal bo'lishini ta'minlagan. Shu bilan birga, Navoiyning so'z qo'llashdagi kamoloti, jumla tuzishdagi mahoratini yaqqol ko'rsatgan. Tamsiliy hikoyatlar esa har biri alohida olinganda mustaqil asarga o'xshasa-da, asar tarkibida muallif g'oyalarining asosiy “yuk” tashuvchisi vazifasini o'tagan.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

### **Normativ-huquiy hujjatlar.**

- Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2009.
- Мирзиёев Ш.М.  
Буюккелажагимизнин мардва олий жанобхалқимиз билан биргакурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
- Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
- Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi mulohazalar). – T.: „Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.
- „Ta'lif to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining qonuni. Oliy ta'lif me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2001.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimizning ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtaida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. -Toshkent. 2018-yil, 12-may.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yozuvchilar Uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Toshkent. 2018-yil, 5-aprel.

### **Asosiy adabiyotlar:**

- Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Lirika. – T.: Fan, 1992.
- Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. – T.: Fan, 1978.

10. ҲаққулИ. Ҳақиқатийўлнитутайдесанг...// Тасаввуфашеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
11. ҲаққулИ. Ирфонваидрок. – Т.: Маънавият, 1998.
12. Ҳаққул И. Камол эт касбким. – Т.: Ҷўлпон, 1991.
13. Ҳомиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. – Т.: Шарқ, 2009.
14. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т.: Маънавият, 1999.
15. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Ўзбекистон, 2009.
16. Valixo'jayevB. O'zbekadabiyotshunosligitarixi. –T.: O'zbekiston, 1993.
17. Valixo'jayevB. Mumtoz siymolar. – T.: A. Qodiriynomidagixalqmerosinashriyoti, 2002.
18. VohidovR., EshonqulovH. O'zbekmumtozadabiyotitarixi. – T.: 2006.
19. Ўзбек адабиёти. Тўрт томлик. Тўртинчи том. Биринчи китоб. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960.

**Monografiya, risola va o'quv qo'llanmalar:**

- Атауллоҳ Ҳусайнӣ. Бадоев ус-саноев. – Т.: Фан. 1981.
- Ahmad Taroziy. Funun ul-balogs'a// O'zbek tili va adabiyoti. 2002, 2003-yillar.
- ЗоиҲдов В. Навоийнинг "Лисон ут-тайр" асари. Ўзбек адабиёти тарихидан. –Т.: 1961.
- Исҳоков Йо. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан. 1979.
- Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – T.: G'.G'. 2014.
- OrzibekovR. O'zbeklirikshe'riyatijanrlari. – T.: Fan. 2005.
- Рахмонова А. Шеърсанъатлари. –Хужанд. 1972.
- Рустамов А. Навоийнинг бадиий махорати –. Т.: Фан. 1979.
- Sulton I. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: Fan. 2005.
- Шарипов Ш. "Лисон ут-тайр" хақиқати . – Т.: Маънавият. 1998.
- Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Фан. 1972.
- Каюмов А. Алишер Навоий. – Т.: 1976.
- Курбонов А. Тасаввуф ва мумтоз поэтика асослари.2-кисм. Маъruzalар матни. – Наманган. 2001.
- Кудратуллаев Х. Навоийнинг адабий-естетик олами. – Т.: F. F. 1991.

- Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т. 1963.
- UzoqJo'raqulov. Nazariy poetikamasalalari. – Т.: G'.G'. 2015.
- Hamidov Z. Navoiy badiiy san'atlari. – Т.: Universitet. 2001.
- Хаккулов И. Занжирбан шерқ ошида. – Т.: Юлдузча. 1989.
- Ходжиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ. 1999.

#### **Ilmiy maqolalar:**

- Atabayeva Z. Navoiy lirikasida takrorga asoslangan san'atlar.// O'zbek tili va adabiyoti. 2011-yil, 3-son.

#### **Lug'atlar:**

- Шамсиев П., Иброхимов С. Навоий асарлари лугати. – Т.: F.F.1972.

#### **Badiiy adabiyotlar:**

- ВохидовЕ. Асарлар. 4-жилд. – Т.: O'zbekiston. 2016, 380-bet.
- Навоий А. Лисон ут-тайр. – Т.: F.F. 1991.
- Навоий А. Лисон ут-тайр, илмий-танқидий матн: Таййорловчи III. Ешохожаев. – Т.: Фан. 1960.
- Навоий А. Лисон ут-тайр. Асарлар. 15томлик, 11-том. – Т.: 1966.
- Navoiy A.G'aroyib us-sig'ar. To'la asarlar to'lami.10 jildlik, 1-jild. –Т.: G'.G'. 2013.

#### **Internet saytlari:**

- <http://www.gpntb.ru/>
- <http://www.natlib.uz/>
- <http://www.samdu.uz/>
- <http://www.faak.uz/>
- <http://www.library.uz/>
- <http://www.literature.uz/>

